

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”
O‘zbek filologiyasi fakulteti
dekani _____ f.f.n. Sh.Nuriddinov
“ _____ ” _____ 2016- yil

5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim
yo‘nalishi
IV bosqich 011-11-guruh talabasi

**YO‘LDOSHEV SULTONNING
TURKIY FOLKLORDA MIFOLOGIK OBRAZLAR
TALQINI**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ S. Yo‘ldoshev
Ilmiy rahbar _____ f.f.n.S.Jumayeva
“ _____ ” _____ 2016- yil

“Himoyaga tavsiya etildi”
Adabiyotshunoslik kafedrası
mudiri _____ f.f.d. N.Shodmonov
“ _____ ” _____ 2016- yil

QARSHI -2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MIFOLOGIYA IBTIDOIY JAMIYAT TAFAKKURINING BADIY IN'IKOSI SIFATIDA	
I. 1. Mifologiya-badiiy tafakkur ibtidosi.....	8
I. 2. Qadimgi turkiy yodnomalarda mifologik tasavvurlar.....	13
II BOB. TURKIY XALQLAR MIFOLOGIYASIDA AFSONAVIY OBRAZLAR TALQINI.....	
II. 1. Turkiy mifologiyada afsonaviy obrazlar.....	22
II. 2. Turkiy mifologiyada afsonaviy qushlar obrazi.....	43
XULOSA.....	51
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	53

KIRISH

Tadqiqot mavzuining dolzarbligi: Jonajon vatanimiz va zahmatkash xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, madaniy va adabiy merosga munosabat ham tubdan o'zgardi hamda yangilandi. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa"¹ ga aylandi.

Darhaqiqat, mustaqillik bizga bergan imkoniyatlardan biri uzoq tarixga ega bo'lgan boy adabiy, madaniy va ma'naviy merosimizni to'la ravishda holis tadqiq va tahlil etishga yo'l ochganidir. Shu bois, xalq og'zaki ijodi-falklarning tarkibiy qismi bo'lgan qadimiy asotirlar, shuningdek, mifologik motivlarga tayanib yaratilgan afsonaviy obrazlar talqini ham nihoyat, haqiqiy bohosini olib boshladi.

O'tmishdan yaxshi ma'lumki, o'zlarining uzoq asrlik tarixlari mobaynida turkiy xalqlar ko'p qatlamli madaniy boyliklarni yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Shulardan biri ibtidoiy tafakkur hosilasi bo'lmish turkiy mifologiyadir. Mifologiya - ajdodlarimiz badiiy tafakkurining ilk namunalari sanaladi. U millatimizning o'lmas xotirasi, bilimlari qomusi, tunganmas ma'naviy boyligidir.

Miflar, mifologik taffakkurning insoniyat tarixidagi ulkan ahamiyati hech kimga sir emas. "Fan mifdan tug'ilmaydi, - deb yozgan edi taniqli faylasuf olim A. F. Losev, - ammo mifsiz ham yashay olmaydi. Zero, fan doimo miflashgan"². Mifalogik mushohadalarning badiiy ifodasi og'zaki ijod namunalari hamda ayrim mifologik obrazlar mohiyatida bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalq og'zaki ijodida muhim o'rin tutuvchi mifologik obrazlar ajdodlarimizning ibtidoiy dunyoqarashlari bilan bog'liq hodisa sanaladi. Zero, tabiyatning xilma-xil dahshatlari - yong'inlar,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.:1998, 524 – b.

² A. F. Losev. Filosofiya. Mifologiya. Kultura. – M.: IPL, 1991. S.32

izg'irin, bo'ron, qahraton, zilzila, muzlik va jazirama-saraton olis ajdodlarimiz tassavurida Zoomorfik va Antropomorfik qiyofalardagi ilohiy kuchlar harakati bilan bog'liq, deb qaralgan. Shuning uchun ham xalqimizning qadimiy ertak, afsona va dostonlarida mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat timsoli sifatida tasvirlanadi.

”Mifologik tafakkur tasavvur hukmronligida paydo bo'lgan tafakkurdir, - deydi Ya. Golosovker, - Tasavvur oddiy faoliyat natijasi emas, balki oliy tafakkur shakli, ayni paytda ham ijod, ham bilim xususiyatiga ega bo'lgan shakldir”³. Bu hodisa mifologik obrazlar tablatiga ham xos. Shuning barobarida xalqimiz tasavvurida mifologik obrazlar (dev, jin, yalmog'iz kampir, pari, xumo, qaqnus, semurg' va boshqalar) bilan bog'liq bir qancha an'ana-odatlar, marosimlar hamda xalqimiz tarixining muhim sahifasi bo'lib kelayotgan arxeologik topilmalar, etnografik ma'lumotlar mavjudki, bu mazkur obrazlar faqatgina badiiyat mahsuli emas, balki o'zlarining tarixiy asosiga ega ekanligidan ham dalolat beradi. Shuga muvofiq, mifologik obrazlarning tarixiy ildizlarini o'rganish, ularning mifologik va tarixiy xususiyatlarini xalq og'zaki ijodi va yozma manbalar asosida qiyosiy tahlil etish o'rinlidir. Mavzuning dolzarbligi ana shu jihatlar bilan asoslanadi.

Tadqiqotning yangiligi: Turkiy xalqlar mif-asotirlari namunalarini tarixiy-qiyosiy metod asosida o'rganish va shu yo'nalish bilan mifologik obrazlarning tarixiy-maishiy asoslari, badiiy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Mifologik tafakkur izlari og'zaki ijod namunalarida sezilarli darajada saqlanib qolgan. Aslini olganda, tadqiqotchi xalq og'zaki ijodining qaysi bir turi, janrining tarixiy ildizlarini o'rganishga qo'l urmasin, u albatta, qadimiy tasavvurlar, marosim, urf-odatlar, xalqning mifologik tafakkuriga duch keladi. Shu sababli dunyo xalqlari folklori tarkibidagi barcha janrlarning tub ildizi bir zaminga borib taqaladi.

³ Ya. E. Golosoker. Logika mifa. – M.: Nauka, 1987. S.11-12.

Qadimiy tasavvurlar, ishonch-etiqodlar izlari va ular tufayli paydo bo'lgan urf-odat, marosim, udumlar u yoki bu darajada hozir ham xalqimiz turmushida, tabiiyki, ularning og'zaki ijodida uchrab turadi. Bu kabi omillarga e'tiborli bo'lish, albatta, ishning muvaffaqiyatli natijasini ta'minlaydi. Shunga muvoffiq, tadqiqotning bosh maqsadi - yuqorida qayd etilgan omillarga tayanilgan holda, mifologik motiv va obrazlarning tarixiy ildizlarini tadqiq etishdan iboratdir. Ishda bosh maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qildik:

- badiiy ijod, xususan folklorning shakllanishida qadimgi miflar asosiy manba bo'lganligini ko'rsatish;
- miflarning asosiy semantikasini izohlash;
- mifologiyaning folklar bilan uyg'un jihatlarini sharhlash;
- turkiy xalqlar mifologiyasidagi etakchi motiv va obrazlar tahlilida ularning g'oyaviy-badiiy qirralarini tarixiy asoslariga ko'ra o'rganish;
- turkiy yodnomalar misolida totemistik dunyoqarash izlarining badiiy ifodasini mifologik obrazlar misolida tahlil etish.

Tadqiqotning ob'yekti: Ishni yozishda M. Afzalov, N. Ya. Bichurin, M. Bois, A. N. Veselovskiy, Ya. E. Golosovker, F. Jololov, K. Imomov, D. S. Lixachev, A. F. Losov, B. Ya. Pronn, B. Sarimsoqov, E. B. Taylor, K. M. Meletinskiy, G. P. Snesev, M. Murodov, N. Rahmonov, B. To'xliyev kabi folklorshunos, etnograf va tarixchi olimlarning faktik materiallari hamda ilmiy-nazariy xulosalariga tayanilgan holda folklor asarlarining ommaviy nashrlardagi manbalar tadqiq etildi.

Metodologik asos: Prezidentimiz I.A.Karimovning milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga oid qarashlari, shuningdek, dunyo folklorshunosligining ma'naviy qadriyatlar tizimini tadqiq etish asosida chiqarilgan xulosa va umumlashmalari tadqiqot ishimizning ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etish.

Turkiy xalqlar mifologiyasi va afsonaviy obrazlar tahlilida qiyosiy-tarixiy, ilmiy tadqiqot usulidan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Turkiy xalqlar mifologiyasi va afsonaviy obrazlari tahliliga bag'ishlangan ilmiy tadqiqod ishimizning nazariy

xulosalari mif-asotirlarning o'ziga xos xususiyatlari, genezisi va takomilini, shuningdek, afsonaviy obrazlar mohiyatini tadqiq qilishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning tuzilishi: Kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.BOB. MIFOLOGIYA IBTIDOIY JAMIYATAFAKKURINING BADIY IN'IKOSI SIFATIDA

I.1. MIFOLOGIYA-BADIY TAFAKKUR IBTIDOSI

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi o'zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar va boshqa janrlardan iborat hisoblanadi. Og'zaki ijodning tarixiy ildizlari Markaziy Osiyoda yashab o'tgan turkiy xalqlarning mifik dunyoqarashiga borib taqaladi. Mazkur mifik dunyoqarash Urxun-Enasoy yozuvlari, "O'g'uznoma", "Kitobi dadam Qo'rqu", Qoshg'ariy tuzgan "Devonu lug'atit turk", A.Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Yuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi adabiy yodgorliklar bilan bog'liqdir.

Dunyoning boqiyliigi va cheksizliigi, zulmat va nur, yaxshilik va yomonlik, tabiatdagi "do'st" va "dushman" kuchlar, xudolar va ruhlar, devlar, parilar va jinlar hamda boshqa g'ayritabiiy mavjudotlarning abadiyligi to'g'risidagi tasavvurlar dunyo xalqlarining qadimgi mifologiyasida ko'plab uchraydi. Darhaqiqat, mifologiya qadimgi ajdodlarimizning olamni tushunishga va olamda o'z o'rnini anglashlariga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi.

Zero, mifologiya insonning tabiat va olam haqidagi tasavvurlaridan iborat. Shunga ko'ra, mifologiya insoniyat ma'naviy tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ibtidoiy tafakkur shakli dastavval sinkretik tarzda vujudga keldi. Sinkretik tasavvurlar majmui ibtidoiy davr turmush tarzi va dunyoqarashining umumiy talablari doirasida paydo bo'lgan hodisa sanaladi. Binobarin, analitik fikrlash va abstrakt tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan ibtidoiy «... odam o'zini tabiatdan ajratmaydi hamda tabiat kuchlari va hodisalari bilan aynan bir narsa, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham odam qator hodisalarni kuzata turib, o'sha hodisalarni o'ziga qaratishga urinadi va ularni yaratishga qodirman, deb o'ylaydi, ikkinchi tomondan esa tabiat kuchlari va narsalar, ya'ni biz jonsiz deb ataydigan narsalarga faqat odamgagina xos bo'lgan qobiliyatni umuman o'zi

yashayotgan hayotni ham xos deb biladi». Ibtidoiy odamning bu tarzda fikr yuritishi va xulosa qilishi tabiiy bir hol edi, chunki mavjud tarixiy sharoit va tabiatdagi turli xil hodisalarning o‘zak–mohiyatini anglash uchun u tabiat hodisalari haqida hech bo‘lmaganda muayyan darajada tasavvur va dunyoqarashga ega bo‘lishi zarur edi. Shuning natijasi o‘laroq qadimiy ajdodlarimizning tabiat va jamiyat hodisalarini qorishiq holda, ya’ni umumlashma, xayoliy tarzda tasavvur qilishi ko‘pgina mifologik qarashlarning kelib chiqishi va tarqalishiga, so‘ngra esa ertaklarning yaratilishiga asos bo‘ldi.

Mif zaminida naql etilgan afsonalar sinkretik xarakteri bilan farqlanadi. Ularning qadimgi namunalari g‘ayritabiiy hodisalar haqida bayn shaklida paydo bo‘lgan namunalari urf-odat, marosim, din elementlari, xudolar, pirlar haqida hikoya qiladi.

Din dastlabki shakldayq ikki xususiyat, o‘ziga ishonch va inonch zaminidan kelib chiqqan harakatni qamrab olgan. Uning taraqqiytida vujudga kelgan har ikki xususiyat e‘tiqodga, e‘tiqodiy harakat sabab hosil bo‘lgan maxsus murakkab shakllar esa sig‘inishga aylangan.

Eng avval dinning urug‘, qabilaviy e‘tiqod shakli yuzaga kelib, totemizm, animizm, fetishizm, shomonlikka dahldor tushunchalarni qamrab olgan. Keyinchalik jahonga mashhur islom, budda, sof xristian dinlari paydo bo‘lgan. Qabilaviy e‘tiqod asosan ibtidoiy jamoa, sinfsiz jamiyatga mansub bo‘lib, nisbatan keyin shakllangan islom dini feodal tuzumiga xosdir.

Mifologik afsonalar ilk bor paydo bo‘lgan dinning urug‘, qabilaviy e‘tiqod shakliga tegishlidir. Ular alohida guruhni tashkil etib, islomning paydo bo‘lishi, rivoji, evolyutsiyasini belgilashda alohida ahamiyat kasb etgan.

Alohida turkumni tashkil etgan bu xil afsonalar o‘ziga xos obrazlar tizimiga ega. Uni ma‘bud, xudolar, homiy kultlar, titan, pahlavon, asotir, pirlar, muqaddas kuchlar tashkil etadi. Ularning har biri o‘zida timsoliy ma‘no tashib, urug‘, elat, qabila ishonchi, e‘tiqod madadkoriga aylangan.

Afsona namunalari qadimgi turkiy qavmlar orasida yaratilgan tarixiy manbalar, ydnomalar, «Avesto» tarkibi, islom suralarida bizgacha etib kelgan.

Mazkur tip obrazlarning ijobiy namunalari ezgulik ato etuvchi tinchlik, osuda hayt, ezgulikni ulug'lash, yvuzlikni qoralash kabi etakchi g'oyalarni ilgari suradilar. Salbiy nusxalari yvuzlik, balo, ofat timsoli sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Syujet tuzilishi ixcham, bir yki ikki epizod asosiga qurilgan, murakkab voqealar g'ayritabiiyligi bilan ajralib turadi. Epizod motivlarda faoliyat ko'rsatgan ilohlar, pir, ma'budlarning g'ayrioddiy qudrati bilan yuz bergan mo'jizalari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mifologik afsonalar ma'rifiy ahamiyati, axborot funksiyasi bilan ajralib turadi. Ibtidoiy tushunchalarga ko'ra g'ayritabiiy hodisalarga ta'sir ko'rsatuvchi ma'bud, ilohlar, voqelikka e'tiqod zaminida paydo bo'lgan irim-sirim, urf-odat, qadimiy duny qarash, tasavvurlar zamirida yaratilib shakllangan mazkur mifologik obrazlarning har biri ijtimoiy haytga mansub turli xil sohalardan birining boshqaruvchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ular mazmuni, funksiyasi e'tibori bilan ikki xil tipga bo'linadi. Birinchi guruhni ma'bud, ilohlar tashkil etadi. Bular: Xumo – baxt tole, davlat xudosi, Anaxita - suv ma'budasi, Xubbi – suv xudosi, Mirrix – urush, g'alaba xudosi, Mitra – quysh, yrug'lik xudosi, Qayumars, Yima ezgulik tangrisi, Nahit – obodlik, farovonlik ma'budi. Har qaysi ilohiy qudrat muqaddaslashtirilgan, yaratish funksiyasini ado etish bilan farqlanadi.

Ikkinchisini pir avliylar tashkil etadi. Xubbi – Amudaryo piri, Cho'ponota - podachilar piri, Qambar otboqarlar piri, Farhod – quruvchi ustakorlar piri, Xizr - ko'kalamzor, hosildorlik, cho'l piri. Bu xil obrazlar homiylik funksiyasi bilan alohidalik kasb etadilar. Ana shu xudolar, pirlar mazkur tip afsonalarning o'ziga xos tabiatini belgilaydi.

Ilohiy sub'ektlar bilan bog'liq xayliy voqea va hodisalardan tashkil topgan motivlar tizimi mazkur tip afsonalarga mansub detalrlar, xususan, sirli voqealar, g'ayritabiiy hodisalar o'ziga xos syujet yaratgan. Bu xil syujetlar ma'bud, ma'budalar, pir va ilohlar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. Ular ibtidoiy tushuncha, suv, olov kultriga mansub e'tiqodlarni tavsiflaydi, xususan, «Anaxita», «Qayumars», «Odami Od», «Er Xubbi», «Anbar ona» kabi asotirlar faoliyatidan bahs yuritadi.

Bu xil afsonalarning voqelikka munosabati hikoya hodisalarini haqiqat deb bilishga, uni aks ettirish mezonlari esa bo'rttirish, xayliy uydirmalarga asoslangan. Ibtidoiy tinglovchi uning voqealarini rost deb bilgan, ishonch hosil qilgan. Uydirma tizimidagi real hodisalar, zilzila, to'fon kabi tarixiy haqiqatlar hikoyaga monelik qilmaydi, aksincha, yrdam ko'rsatadi, ishonchni orttiradi.

Talqin uslubi fantastikaga asoslanib, xabar funktsiyasini ado etadi. YUz bergan tabiiy hodisalar talqin xayliy voqealarni haytga yaqinlashtirib, ishonchli manba sifatida tinglovchi e'tiborini jalb etgan.

Mazkur tip afsonalarning muhim belgilaridan biri uning mo'jiza asosiga qurilganligidir.

Maishiy ma'no tashigan mifologik obrazlar asosida tashkil topib shakllangan mazkur afsonalar asosan tabu, magiya, dualizm, shomonlik kabi tushunchalar bilan bog'liq voqealarni naql etgan, otashparastlik dinining yuzaga kelishiga va rivojiga hissa qo'shgan, muhimi, muqaddas narsa, hodisalarini tabulashtirish, sirli vositalarga mansub taqiqning paydo bo'lishiga olib kelgan. Uning asosini ibtidoiy jamoa, urug', qabila udumlari, dastlabki dunyqarash, e'tiqodga moslashgan munosabatlar tashkil etgan. Mazkur afsonalar ibtidoiy hayt tartiblarining emirilishidan keyin, feodal-patriarxal tuzumning dastlabki davrlarida yuzaga kelgan va an'anaga aylangan.

Mifologik afsonalar rang-barang mavzui, o'ziga xos manbalari, turli xil obrazlar, qadimiy e'tiqodlarni xayliy uydirmalarda naql etishi bilan alohidalik kasb etgan.

Mifologik afsonalar ilk bor yaratilganligi, urug', qabila e'tiqodi, ilohlarga topinish, pirlarga sig'inish, sajda qilishni ifoda etganligi bilan farqlanadi. Ana shu o'zgachalik mazkur tip afsonalarning muhim belgilari hisoblanadi.

Bu xil hikoyalarni tashkil etgan motivlar, ilohiy hodisalar yaratish tabiati bilan ajralib turadi. Bu xususiyat tadqiq etilgan afsonalarning xususiy sifatleri, aniqlovchi xossalaridir.

Mazkur turga mansub afsonalarda voqealarning katta suv, o't-olov, to'fon bilan bog'lanishi, g'ayritabiiy kuch, ulkan qiyfa, iloh, pirlar mo'jizasi

ma'budlarga ishonch, e'tiqodni orttirgan, ta'sir kuchini oshirib, tashviq etish funksiyasini bajargan. Xullas, mazkur asotirlar oila, urug', qabila, e'tiqodining baynini tavsiflab mazkur tip afsonalarga xos xususiyatni belgilagan. Titan qahramonlar ezgulik yaratuvchi, olov, suv stixiyasi timsoli, hosildorlik ilohlari sifatida paydo bo'lib, o'z vaqtida qabiladoshlarining g'ayrioddiy hodisalarga topinishi, uni muqaddas deb bilishga undab, ishonch e'tiqodni mustahkamlagan, nihoyat, har birining epik an'ana sifatida tashkil topishiga imkon bergan.

Mazkur tip afsonalarning yuzaga kelishida dualizm ta'siri, ezgulik va yvuzlik ilohlari orasidagi doimiy (zid) to'qnashuv, janglar asos bo'lgan. Bu narsa mifologik afsonalarda har ikki ilohlarning o'zaro olishuvi timsolida tavsiflangan. Qayumars ezgulik xudosi, ayni paytda, yaratuvchi, Axraman yvuzlik ilohi, buzib, yo'q qiluvchi sifatida harakat qiladi. Jangda Qayumars engib, tinchlik, osuda hayt, mo'l-ko'lchilikni ato etadi. Afsonalar ezgulik ilohiga e'tiqod, marhamatiga topinishni da'vat etgan. Ulug'vor g'oyalar esa yvuzlikka qarshi chiqib jang qilish ko'lamida naql etilgan.

Bu xil afsonalar qadimiy tarixga ega bo'lib, tabiat va jamiyat hodisalariga ongsiz munosabat zahirida tashkil topib, ijtimoiy tafakkur, turli xil marosim, tushunchalar, homiy kulturning ayrim elementlarini o'zida aks ettirgan. Eng muhimi, ana shu tipdagi afsonalar mifologik tushunchalar, kulturna e'tiqod zaminida tashkil topib, tabiat, ibtidoiy jamiyatga xos belgilarning paydo bo'lish sababini tavsif etish xususiyati bilan ajralib turadilar. Ular sodda tushuncha, g'alati alomatlar sodir bo'lishda omil hodisa sababini aniqlab berishga harakat qiladi.

Mifologiya, avvalo, ibtidoiy jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sanaladi. Badiiy ijod, xususan, xalq og'zaki ijodining yuzaga kelishi, shaklanishi va rivoj topishida eng qadimgi mifologiya asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, urug'chilik davri mafkurasining hukmron g'oyasi sifatida uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan. U ibtidoiy tafakkur mahsuli bo'lib, bu tafakkur ibtidoiy

odamlarning borliq olam haqida qabila doirasidagi tasavvurlarga asoslangan ongsiz badiiy tafakkur sanaladi

Mifologiya mif ijodkori uchun ayni haqiqat hisoblanadi. Shunga ko'ra tabiatning turli hodisalaridan qo'rqib va dahshatda yashagan qadimgi odamlardan o'ziga yupanch izlagan.

Ma'lumki, har qanday tasavvur bu bilim degani emas. Eng qadimgi afsona va rivoyatlarda ham bilimlar, to'g'rirog'i, bilim kurtaklari mavjud. Chunki har qanday afsona faqat inson hayolotining mahsuligina emas, balki u borliq, jamiki olam sirlari bilan bog'liq. Ana shu bog'liqlikni o'rganish ham muammo. Masalan, dunyo xalqlari, xususan, qadimgi turkiylarning afsonalarida "Tabiatda ulug' va foydali kuchlar-quyosh va suv abadiy bo'lgan o'lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar-zulmat va kulfat mangu hukmron o'lka bor" ligi takidlangan. "Avesto" kitobida yozilishicha, ikki olam, ya'ni yaxshilik va yomonlik olami mavjuddir. Yaxshilik olamiga Xurmuzd, yomonlik olamiga esa Ahriman boshchilik qiladi. Ahriman yaxshilik olami bilan kurashmoqchi bo'ladi. Xurmuzd bu kurashning oldini olib, osmon, suv, yer, o'simlik, hayvonlar va boshqalarni hamda birinchi insonni yaratadi. Demak, mifologik tasavvurlarga ko'ra inson yomonlik bilan kurashish uchun dunyoga kelgan. U yomonlikdan yengilmasligi, aksincha uni yengmog'i lozim.

Qadimgi Xitoy afsonalarida ham tartibsizlik (xaos) tarzidagi olam ibtidosining dastlabki holati haqida tasavvurlar mavjud. Bu tartibsizlikni tartibga soluvchi ikkita fazoviy kuch-Osmoniy (Yan) va yeriy (In) kuchlar bo'lgan. Ular bu tartibsizlikdagi kurash natijasida uning yengil zarralaridan osmonni, og'ir zarralaridan esa yerni yaratganlar.

Anglashiladiki, dastlabki miflarning asosiy semantikasini xaos va kosmos o'rtasidagi abadiy kurash va bu kurashlarning kosmos foydasiga hal etilishi tashkil etadi. Afsonalarda Xaos zulmat qaridagi cheksiz bo'shliq, tubsiz choh holida tasvirlanib, unda voqelik buzg'unchilik holatiga bo'lgab suv, olov hamda turli dahshatli mahluqlar haqida hikoya qilinadi. Kosmos esa Xaosga butunlay qarama-qarshi yaratuvchi kuch sifatida talqin etilib, u o'zida koinot va tabiatning

bir tartibda osoyishta hayot kechirishi uchun imkoniyatlarni mujassamlashtirgan. Demak "... Xaosning kosmosga aylanishi zulmatdan yorug'lika, suvlikdan quruqlikga, bo'shliqdan moddiy dunyoga, tartibsizlikdan tartiblilikka, vayronalikdan yaratuvchilikka o'tishini anglatadi"⁴.

Sinfiy jamiyatning yuzaga kelishi mifologiya inqirozini belgilab berdi, chunkiy bu davrga kelib inson ongi o'sdi, dunyoqarashi kengaydi. Ishtimoiy ongning fan, din, san`at kabi shakllari ajrala boshladi. Biroq mifologiyaning inqirozi uning batamom yo'qolib ketishiga olib kelmadi, miflar ijtimoiy ongning turli shakllariga ko'chib, qaytadan jonlandi. Bunga sabab esa mifologiyaning sinkretik xarakterga ega bo'lganligi edi. Aniqroq qilib aytganda, mifologiya - birinchidan, ibtidoiy fan-olamni anglashdagi dastlabki qadam, ongsiz mushohada ekanligi;

Ikkinchidan, ibtidoiy din-ilohiy mazmun bilan yo'g'rilgan o'ziga hos ta'limot sifatida yuzaga kelganligi;

Uchinchidan, ibtidoiy san`at-voqelikka emotsional munosabat tarzida barqarorlashganligida namoyon bo'ladi.

Ana shu asoslarga ko'ra, mifologiya ibtidoiy jamiyat sharoitida yaratilgan ilk folklor asarlari – yangi-yangi afsona, rivoyat, ertak va doston kabi janrlarning yuzaga kelishida zamin yaratdi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Folklor janrlari mifologiyadan oziqlanadi. Bu o'rinda har ikkisinin tabiatida bir qator uyg'un jihatlarning mavjudligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, mifologiya ham folklor ham og'zaki ijod sanalib, voqelikka emotsional munosabat bildiradi. Biroq mifologiyada voqelik muayyan sub'yekt va ob'yektlarga bog'lab ifodalansa, folklorda voqelik muayyan obrazlar vositasida tasvirlanadi. Shuningdek mifologiyada ramziylik yetakchi o'rinni egallagani holda voqelik folklorda poetik ko'chimlar asosida aks ettiriladi.

Biroq mifologiyaning folklor bilan o'zaro uyg'un keluvchi jihatlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, u folklor janri bo'la olmaydi, chunki mifologiyada badiiylik sinkretik tarzda kechadi. Ibtidoiy odam mifga to'la

⁴ Melitinskiy K. M. Poetika mifa. – M.: Nauka, 1976. S.206.

ishonadi, ya'ni uni tasavvuriga ko'ra jonlantiradi - mifda hech qanday fantastika yoki badiiy uydurma yo'q. Masalan, olam haqidagi ibtidoiy miflar, osmon (ko'k), oy, quyosh hamda turli xil hayvonlar, tangrilar, mabudalar, g'ayritabiiy mahluqlar, afsonaviy pahlavonlar haqidagi asotirlar ibtidoiy inson tasavvuri fonida aks ettirilgandir. Folklor esa ongli badiiy ijod. Folklor asarlarining tinglovchisi uchun ulardagi voqelikning fantastika yohud haqiqat ekanligi muhim emas, qolaversa, badiiy asar tasvirlanayotgan voqelikning haqiqat ekanligiga o'quvchini ishontirish uchun yaratilmaydi. Binobarin, badiiy asarda badiiylik bosh mezon sanalganligi bois, o'quvchi yohud tinglovchiga estetik zavq ulashish, manaviyatini boyitish uchun asosiy vazifasi hisoblanadi.

Folklor asarlari tarkibiga ko'chgan mif aksart o'zining semantik doirasini toraytirgani holda syujet yahlitligini ta'minlovchi mifologik motiv sifatida yashab qoldi. Mifologik motivlar sehri ertaklarda hamda ishqiy-romanik dostonlarda ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalan, sehri ertaklardagi har bir epizod qahramonlarining xatti-harakatlari, sehr, mo'jiza, xayoliy obrazlar bilan boshlanadi.

”Devsafid”, ”Ilon og'a”, ”Yalmog'iz”, ”Xirsiddin polvon”, ”Semurg' ”, ”Ilon pari”, ”Devbachcha”, ”Kenja botir” kabi ertaklar zaminida ibtidoiy dunyoqarash - tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonlarni totemlashtirish asosiy o'rin tutadi.

Jumladan, quyosh, oy, tog', tosh, suv, kabi tabiat jismlari talqinida animistik dunyoqarash izlari yaqqol seziladi. Bunda jonsiz narsalar jonlantiriladi: er, suv, tosh, tog'lar tilga kirib, qahramonlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Inson toshga aylanadi, sehr yechilganda, esa u o'z asliga qaytadi. Ularda ayiq, bo'ri, burgut, ilon, yalmog'iz, pari, ajdar, dev, alvasti, jin kabi personajlar misolida mifologik tushunchalarning belgilari saqlanib qolganligini sezish mumkin. Bu o'rinda mifologik motivlar badiiy asarning ijtimoiy-estetik, g'oyaviy-tematik hususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish lozim.

Shunday qilib davrlar o'tishi bilan insoniyat tafakkurining o'ta rivojlanishi natijasida mifalogiya "...badiiy ijod uchun potensial harakat maydoniga aylanib qolganini ko'rish mumkin. Mana shuning uchun ham mifalogik syujetlar, motivlar va personajlar folklordan mustahkam o'rin olib qolgan"⁵. Bu esa o'z navbatida mifalogiya badiiy tafakkur ibtidosi bo'lgan, deya xulosa qilishimizga olib keladi.

⁵ O'zbek folklorining epik janrlari. –T.:fan.1981.104-bet.

I.2. QADIMGI TURKIY YODNOMALARDA MIFOLOGIK TASAVVURLAR

Qadimgi turkiy yodnomalardagi mifologik tasavvurlar haqida soʻz yuritishdan maqsad-mifologik motivlar asosida shakllangan afsonaviy obrazlarning kelib chiqishiga aniqlik kiritishdir. Zero, eng qadimiy, tarix teranliklaridan chiqib kelayotgan bir millatning eng katta urugʻlaridan biri boʻlgan turkiylar madaniyati va adabiyotida asotirli motivlar hamda obrazlar alohida oʻrin tutadi.

Maʼlumki, tarixi eski, katta millatlarda asotirli, yaʼni mifologik manbalar juda moʻldir. Bu jihatdan boy va mahobatli tarixga ega boʻlgan turkiy xalqlarning qadimgi yodnomalari katta qiymatga ega.

Oʻtgan asrlar davomida koʻp harakatli katta urushlar, begona madaniyatlar va begona dinlar bilan munosabatlar turkiy xalqlar asotirlariga bir qator taʼsir koʻrsatdi. Bu taʼsirlarning izlari, turkiylar madaniyatining barcha sohalarini qamrab olgan holda aytish mumkinki, xitoyliklar, hindlar va eronlar bilan munosabatlarda boʻlgan koʻkturklarda va uygʻurlarda hamda toʻgʻri janubga tushayotib arablar bilan duchlanib qolgan sumerlarda koʻrinadi. Oltoyliklar, yoqutlar, hatto qirgʻizlar yuqoridagilar bilan qiyoslanilsa, hali-hanuz taʼsirlardan xolidirlar. Lekin har qalay bu munosabatlar namunalarga boy, manbalari koʻp, tangrilari oʻziga xos boʻlgan turkiy xalqlar mifologiyasining qiyofasini oʻzgartira olmadi.

Boshqa bir qator millatlarning madaniy hayotida keng oʻrin egallagan mifologik tasavvurlar, obrazlar va asotirli mavzular esa turkiy xalqlar madaniyati taʼsirida shakllangani shak-shubhasizdir.

I. V. Stebleva ajdodlarimizning mifologik tasavvurlariga tayangani holda turkiy yodnomalar mohiyatidagi asotirli motivlarga diniy-mifologik tizim sifatida yondashadi. Uning taʼkidlashicha, qadimgi turkiylar madaniyatidagi diniy-mifologik tizim turli shakl va mazmundagi matnlarda uchraydi.

Shunga muvofiq ”Qadimgi turkiylarning diniy-mifologik tizimi modeli turli xarakterdagi matnlarda aks etadi va ayni paytda boshqa xalqlar-Osiyo-Evropa xalqlari diniy-mifologik tasavvurlar tizimi bilan tipologik o’xshashlikni aniqlashga imkon beradi”⁶.

Zotan, ”...bir xalqdagi mifologiyaga parallellikni boshqa bir xalqdagi mifologik motivdan topish mumkin. Agar bu xalqlar o’rtasida tarixiy aloqalar bo’lsa, o’sha mif yoki motivning o’zlashtirilishi yoki migratsiyasi haqidagi taxminlarni ilgari surish mumkin. Ammo tarixiy munosabat bo’lmasa ham, o’sha mif yoki motivga hamohang mifni boshqa xalqdan topish mumkin. Bunday holatda ko’chish yoki o’zlashtirish nazariyasidan chekinib, parallel taraqqiyot yoki stadial o’xshashlini tahmin qilish mumkin”⁷.

Qadimgi turkiy yodnomalarda mifologik motivlar va obrazlar asosan uch qavatli olam modelini gavdalantiradi. Yodnomalarda eng ko’p tarqalgan, uch qavatli olam modelini gavdalantiradigan obrazlar tangri, yer-suv, o’t-suv, tog’, o’rmon kul’tlaridir. Bu obrazlar kul’t bo’lgani uchun ham mifologik mazmunga ega va qadimgi turkiy yodnomalarning yozma adabiyot sifatida shakllanishida muhim vazifa bajargan. Qadimgi yodnomalardagi kul’t xususiyatini saqlagan mazkur obrazlar kosmogonik va etnogonik mifga asos bo’lgan. Mifning maqsadi ham shunda. O’z mohiyatiga ko’ra, mif olam qurishining turli unsurlarini va olamning shakliy qiyofasini ramziy tasvirlashdan iboratdir. Masalan, turk kosmogoniyasida, dunyo deb atalishi olamning qanday bichim olgani borasida juda mufassal so’z yuritilgan. Ko’klar va ko’klar olami ichida quyosh, oy, yulduzlar singari ilohiy qudratlarning ham yaratilishlariga oid turli hodisalar ko’rsatilgan va har xil nuqtai nazarlar keltirilgan.

⁶ I. V. Stebleva K rekonstruktsi drevnetyurskiy relegiozno – mifologicheskiy sistemi. – Tyurkologicheskiy sbornik”.- M.:Nauka. 1972. S.226.

⁷ M. T. Steblin –Kamenskiy. Mif.- Leningrad: Nauka.1976. S. 14.

Eng qadimgi asotirlarda bo'lgani kabi Tangri turkiy yodnomalarda ham eng ko'p tarqalgan mifologik obraz sanaladi. Yodnomalarda Tangri asosan, yaratuvchi va homiy vazifasini bajaradi. Chunonchi, qadimgi turkiylar olamning

yaralishida asosiy, muhim qismlar deb tangri, ya'ni osmon va yerni tushunganlar. Eng arxaik davrga aloqador tasavvur-tangrini ota, yerni ona deb tasavvur qilish yodnomalarda bosh o'rinda turadi. Tangri va yerning qadimgi turkiy yodnomalardagi vazifasi orqali, bir tomondan ilk odamzodning fazoni

anglash darajasini, ikkinchi tomondan, oila- nikoh munosabatlarining tabiiy ob'ektlarga ko'chirilganini anglash mumkin. Chunki yer va osmon qadimgi turkiylar tasavvurida kosmogonik jarayonning asosiy boshlang'ich nuqtasi sanalar edi.

Olamning yaratilishi borasidagi bir sumer afsonasiga ko'ra, Op-su degan ichimlik suv bilan Tiamat degan sho'r suv timsoli-urg'ochi bir devdan ko'klar va yerlar bunyod bo'lgani, undan keyin ko'k tangrisi Onu, Havo tangrisi Enlil, dengiz tangrisi Eo (Enki) ning yaratilgani, bu uch tangrining ham quyoshni, oyni, yulduzlarni yaratganligi tasvirlanadi. Boshqa bir turkiy afsonaga ko'ra esa, Qora Xon (Qoyra Xon) suvlarni, dunyoni, insonni yaratgandan keyin o'n yetti qavat ko'kni yaratgandir.

Yuqorida keltirilgan qadimgi turkiy asotirlardan farqii o'laroq yodnomalarda Tangri obrazi mifologik mazmunidan tashqari, yerning tomi ma'nosida uchraydi:

Yuz yashayin. Tangrim ochuk bizga.

Yuz yil yashayin. Tangrim tomdir bizga.

Kul Tigin yodnomasining tugallanmasida Tangri olamning, butun borliqning yaratuvchisi, hech narsa abadiy emasligi to'g'risida aytiladi.

Tangri va yer ibtidoiy fikrlash bosqichida jonli deb tasavvur qilingan. Ayniqsa, Kul Tigin yodnomasining boshlanishida bu jarayonni aniqroq kuzatish

mumkin. Inson o'z faoliyati va xatti-harakatidan andoza olib, o'z harakatlarini fazoviy jismlarga (osmon va yer) ko'chirgan. Ibtidoiy davrda tashqi olamda qanday harakat bajarilsa, inson ham shuni takrorlagan. Bunday takror takrorlanuvchi tafakkurning natijasidir. Uning uchun ob'yekt (Tangri) ham, sub'yekt (Ota) ham farqsiz bo'lgan, inson ikkovining o'rtasiga chegara qo'ya bilmagan. Inson Tangri va yerga o'z faoliyatini ko'chirib, bu ob'yektlarni

totemlashtirgach, asta-sekin ilohiy tus olavergan. Yodnomalarda qayd etilishicha, Tangrining qadimgi turk davridagi vazifasi ko'p: birinchidan, u yaratuvchi sifatida yana odamlarning barcha tilaklarini yuzaga chiqaruvchi, ularga doimo yordam beruvchi jonsod sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, Irq-bitigida hozirgi ba'zi turkiy xalqlarda (masalan, Qorachoy, bolqorlarda) saqlanib qolgan olqish, tilak mazmunidagi qo'shiqlarning ba'zi namunalari bor. Bu qo'shiqlar Irq bitigida biror marosim, urf-odat bilan bog'langan. Irq bitigida bu duo Tangri tomonidan aytiladi.

Ar omalayu barmish, tangrika sokushmish,

Qut qalmish, kut barmish.

Af'ilingta yilqing bolsin,

Ozing uzun bolsin, tinish.

Ancha bilinglar: adgu ol Odam emaklab borgan, tangri bilan uchrashgan. Baxt so'ragan. (Tangri baxt bergan va shunday duo qilgan): molxonangda yilqing bo'lsin, umring uzun bo'lsin, degan. Shunday bilinglar: yaxshidir bu.

Shuningdek, "Devonu lug'atit-turk"ga ham Tangri xuddi Urxun yodnomalaridagi singari she'riy parchalarning aksariyati bilan zanomdosh bo'lgani uchun ham Tangrining vazifasida ham umumiyliklar bor:

Tangri ajun torutti,

Chigri iz tizginur.

Yulduzlari yorkashib,

Tun kun uza burkanur. Xudo olamni yaratdi, falak doimo aylanib turadi. Yulduzlar saf tortib, tun kunduz o'zra burkanadi.

"O'g'iznoma" da ham tangrining yaratuvchilik vazifasi yaqqol ko'rinadi. Og'iz qag'an bir yarda tangrini yalbag'ida idi—O'g'iz Hoqon bir yerda osmonga yolvorar edi. Tangrining mazkur vazifasiga asoslanib, "O'g'iznoma"ning yaratilgan davri haqida xulosa chiqarib bo'lmaydi, balki bu o'rinda mifologik obrazlarning an'anaviyligi, inson aqliy faoliyatining tayyor qolipiga tayanish to'g'risida gapirish o'rinlidir. Tangrining yaratuvchilik vazifasi to'g'risida so'z ketar ekan, uning ildizlari aslida turkiy afsonalarda qayd etib o'tish joizdir .

Bir afsonada aytilishicha, Tangri, Ulgen yeru osmonni yaratuvchi sifatida talqin qilinadi: "Ko`k va yer yo`q edi. Bepoyon dengiz bor edi. Tangri Ulgen dengiz ustida uchib yurar, qo`nadigan bir joy yo`q edi. Shu payt uning ko`ngliga bir gap keldi: "O`ng tarafingdagi narsani ushla!" Ulgen bu so`zlarni takrorlab, ko`plarini o`ngga uzatdiy-u, birdan suv ustida chiqib yotgan bir toshni ko`rdi va o`sha toshning ustiga o`tirdi. O`tiradigan joy bo`lganidan keyin dunyoni yaratmoqchi bo`ldi... Ulgen, yer yaratilsin dedi va yer yaratildi. Ko`klar yaratilsin, dedi va ko`klar yaratildi. Shu tariqa butun dunyoni yaratdi".

Afsonadagi tangri Ulgen bilan yodnomalardagi Tangrining ildizi bir bo`lib, yuqori olamni ifodalaydi. Hamma narsa tangridandir, degan e`tiqod va tasavvur ayrim turkiy xalqlar folklorida, jumladan, Qorachoy-Bolqor folklorida saqlanib qolgan. Qorachoy-Bolqor mifologiyasida hozirgacha turk-mo`g`ul panteoni Tangriga bag`ishlangan uchta gimn-qo`shiq yetib kelgan. Ularning har biri o`ziga xos kuyga va ijro xususiyatiga ega. Tangri bu qo`shiqlarda yer va osmonni yaratuvchi, yerdagi barcha jonzotlarning homiysi sifatida kuylanadi. Afsungarlar qo`shiqlar bilan qatorda qurg`oqchilik paytlarida Tangriga murojaat tarzida maqtov-madhiya va najot qo`shiqlarini ijro etganlar. Toki Tangri yomg`ir

yog'dirsin va o'tlar ko'karsin. Tangriga nisbatan shunday paytlarda qarg'ish va olqish aytganlar. Bu qo'shiqlar boshqa turkiy xalqlarga ham ma'lum. Qadimgi turkiylarda ham yuqoridagidek qo'shiqlarning ko'rinishi bor. Irq bitigidan yuqorida keltirilgan olqish, tilak mazmunidagi qo'shiqlar buning bir na'munasidir. Bu qo'shiqlar biror marosim, urf-odat bilan bog'langan. Irq bitigida bunday parchalar ko'p uchraydi. Qolaversa, qadimgi turkiy yodnomalardagi madaniy qahramonlarning yuzaga kelishiga ham Tangri katta ta'sir ko'rsatgani manbalardan ma'lum. Shuni ta'kidlash joizki, Tangrining ilk avlodni shakllantirishi regional jihatdan bir bo'lgan xalqlar uchun umumiydir. Irq bitigining II-hikoyasidagi taqdir Tangrisi (yo'l tangri) ning vazifasi bu jihatdan alohida diqqatga sazovor.

Ala atlig' yol Tangriman,

Yarin kara ashurman.

Otru aku aylig' kishi,

Og'lan sokushmish, kishi qorqmini,

Qorqma timish, qut barganman, timish,

Ancha bilinglar: adgu ol.

Ola otli taqdir Tangrisiman, ertayu kech yurarman. O'rtağa ikki oylik inson bolasi to'qnashdi, odam qo'rqan, qo'rqma degan, baxt bergayman, degan. Shundan bilinglar: yaxshidir bu.

Bu parchada taqdir Tangrisi – ilk mifik obraz, mazkur syujetni esa mifik syujet deb qarash mumkin. Umuman, ilk mifik syujetlardagi mifik qahramon yakka qahramonlikni yuzaga keltiradi. Ilk mifik qahramonning hammasi fazoda joylashgan yoki fazodan tushadi. Tangri bilan barobar yer (yoki yer-suv) ham olamning mifik manzarasini ko'rsatadi. Bu motiv Yoqut va Hakas dostonlari boshlanmasida bor. Uch qavatli olam modeli haqidagi tasavvurlarning paydo bo'lishida yerning ham alohida vazifasi bor. Yer ham, Tangri ham har doim xalq

uchun madad beradi: xalqni yaratadi, baxt beradi, kulfatlardan asraydi. Tangri haqidagi madhiya qadimgi turkiylarda bor ekanini moillik she'rlarida ko'rdik. Yunon tarixchilarining asarlarida qadimgi turkiylarda yer to'g'risidagi madhiya bor ekanligi to'g'risida xabar berildi. "Manas" eposida ham shunday madhiyaning qisqa parchasi bor. Bu parcha:

Yer, yer o'ldigi zamon,

Suv, suv o'ldigi zamon.

Degan misralar bilan boshlanadi. Yer-suv o'rta olam qatlamini ifodalay ekan, bizningcha bu keyingi hodisadir. Aslida yer, qadimgi turkiylar tasavvuriga ko'ra, o'rta odam ilohiyotiga, suv esa qo'yi olamga mansubdir. Ayrim turkiy afsonalar shunga ishora qiladi. Qolaversa, qadimgi turkiy yodnomalarda ham shu talqin bor.

Tog' kulti ham qadimgi turkiy yodnomalarda ko'p uchraydi hamda turkiy mifologiyaning asosiy mavzularidan biri sanaladi. Yodnomalardagi tog' kultini

yer-suv kultining bir qismi, bu kult o'rta olamni ifodalaydi, deb qarash ham mavjud. Tog' kulti yer-suv kultidan ajralgan, alohida kultdir. Kul Tigin va To'nyuquq yodnomasidagi Bangligak tog'i hamda Tinsi o'g'li yotadigan tog' tavsifi alohida qatlamni nazarda tutadi: Turk Bodun Tamir Qapig'qa Tinsi og'li Yatig'ma Tag'qa Tagmis, idi yoq armis– turk xalqi temir darvozasiga Tinsi o'g'li yotadigan toqqa yetdi, egasi yo'q ekan.

Urxun yodnomalarida Yish (tog' o'rmoni) ko'p uchraydi. Tog' o'rmoni kultining yodnomalaridagi vazifasi shundan iboratki, bu kult inson faoliyatini yuzaga chiqaradi. Insonga madad beradi: ilgaru kadirkan yishig' asha bodunug' ancha qonturimiz, ancha itdimiz– sharq Kadirkan yishna oshib, xalqni shu tarzda joylashtirdik, shunday kelib tuzatdik. Iduk Otukan yish bardig', qurig'aru, barig'sha bardig'– Muqaddas O'tukan yishcha bording, g'arbg'a borolguncha bording va hokazo. Yish kulti asosan, jang lavhalari tasvirlangan o'rinlarda uchraydi. Shu boisdan ham bu kult himoyachi timsolida gavdalantiriladi. Bu

kultning Urxun yodnomalaridagi himoyachi vazifasini yana o‘zbek xalq ertaklarida ham ko‘ramiz. Ba’zi ertaklarda qahramonlar yovuz kuchlardan qutulish uchun nina tashlasa, albatta yovuz kuchlardan himoya qiluvchi o‘rmon paydo bo‘lib, yovuz kuchlarning yo‘lini to‘sib qo‘yadi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi turkiy yodnomalardagi yuqorida sanab o‘tilgan kulturning vazifasi, shubhasiz, qadimgi turkiy yozma adabiyotning shakllanishi uchun asos –zamin bo‘lib xizmat qilgan.

II BOB.

TURKIY XALQLAR MIFOLOGIYASIDA AFSONAVIY OBRAZLAR TALQINI

II.1. TURKIY MIFOLOGIYADA AFSONAVIY OBRAZLAR

Osuda va porloq kelajakni orzu qilib, unga umid ko‘zi bilan boqqan uzoq ajdodlarimiz inson qobiliyatini mutloqlashtiruvchi mifologik obrazlarni yaratgan. Ana shu mifologik obrazlarning ilk namunalari ko‘hna mif va afsonalarda o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun qadimgi davr folklorida ibtidoiy tasavvurlar asosida yaratilgan afsonaviy obrazlar alohida o‘rin tutadi.

Ma’lumki, mif grekcha “ muthos “ so‘z , rivoyat so‘zidan olingan bo‘lib, dunyoning paydo bo‘lishi, tabiat hodisalari, xudolar va pahlavonlar haqidagi to‘qima afsonalar majmuai sanaladi. Mifologiya ibtidoiy insonning tabiatni

bilishga intilishining natijasi sifatida vujudga kelgan bo'lib, unda yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlar hamda obrazlar uning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Qo'rinadiki, mifologiya osoyishta yashash hamda yovuz kuch ustidan g'alaba qila oluvchi zo'r kuch va qudrat haqidagi orzu-umidlarning in'ikosidir. "Kishilar yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlikni sovuqqa qarama-qarshi qo'yib, baxt o'lkasi va baxtsizlik o'lkasi degan miflarni yaratganlar. Go'yo tabiatda ulug' va foydali kuchlar-quyosh va suv abadiy bo'lgan o'lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar-zulmat va kulfat abadiy bo'lgan o'lka bor emish. Ko'pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki o'lka va ular o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi"⁸.

Qadimgi manbalarda keltirilgan turk afsonalarida bo'ri turk urug'ining ajdodi sifatida namoyon bo'ladi. Afsonada tasvirlanishicha, "Qadimgi turklar ona bo'rini va dushman tomonidan qirilgan urug' ichida tirik qolgan o'n yoshli o'g'il boladan tarqalgan. Bu bolani ona bo'ri qo'l - oyoqlari qirqilgan holda topib olgan va uni go'sht berib boqqan. Shundan so'ng g'orlarning biriga kirib ketgan va u yerda o'nta bola tuqqan. Ularning har biri turk urug'larining asoschilari bo'lgan.

Hatto Ashina ismli turk urug'larining birida bo'ri kallasi tasvirlangan bayroq ham bo'lgan"⁹.

Shuning uchun ham ibtidoiy kishilar og'ir va ayanchli turmushlarini yaxshilashga intilganlarida bo'riga sig'inganlar.

Bo'ri bilan bog'liq bo'lgan e'tiqod yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, chorvadan ehtiyotlash, jinlarni yovuz kuchlardan

⁸ Mallaev N. M. O'zbek adabiyoti tarixi.-T.: "O'qituvchi", 1976, 42-bet.

⁹ Bichurin N. Ya. Sobraniya svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Aziy v drevnie vremena. Tom1, M.: - L. 1950.S.40.

saqlashdan iborat bo'ladi. Bo'ri totemiga aloqador ba'zi ertak ("Cho'loq bo'ri", "Bo'ri qiz", "Bo'ri") va afsonalar hozirgi kunga qadar xalq orasida aytib kelinadi. Ot kulti qadimgi kishilarning turmish-tirikligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida ho'jalikda foydalanish davomida yuzaga kelgan.

Arxeologik qazilmalardan topilgan yarim ot, yarim odamsifat ishlangan rasmlar, hali-haligacha ekin maydonlarida, polizlarda otning kalla suyagining qo'riqchi sifatida qo'yilishi va boshqalar ibtidoiy kishilar ongida saqlanib qolgan ot kulti haqidagi e'tiqodning timsoli hisoblanadi. Qadimgi Baqtriyadagi Zariasp, Xorazmdagi Xazorasp singari geografik joy nomlari aslida ot kulti bilan bog'lanadi. O'zbek xalq dostonlarida G'iro't, G'irko'k, Boychibor, Jiyronqush, Majnunqush kabi epik ot obrazlarining g'oyat katta o'rin tutishi ham shundan. Demak, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik va totemistik qarashlarni vujudga keltirdi. Bu qarashlar o'z navbatida ilk bor to'qilgan ertak va afsonalarning motiv hamda syujetlarini tashkil etdi. Demak,

ertak va dostonlarda aksariyat ijobiy obrazlar bilan birga yozuv personajlar-ajdaho, dev, yolgog'iz, jodugar kampir, odamxo'r kabi bir qator obrazlar silsilasiga ham duch kelamiz. Ularda hikoya qilinishicha olis safarda xatarli yo'llarni bosib o'tayotgan mard va jasur pahlavon qarshisidan kutilmagan va kutilgan hollarda vahima kelbat dev chiqadi. Ertak mazmunida pahlavon albatta, devni yengib, o'z manziliga eson-omon yetib borishi shart va albatta, shunday bo'ladi ham. Ertakda haqiqatning qaror topishi uning intihosidan darakdir.

Shu o'rinda bir mulohaza, ertaklar, xalq dostonlari va afsonalarini dev obrazlarisiz tasavvur qila olmaymiz. Devlar o'zlarining g'ayri-tabiiy tasvirlari bilan kishini o'ziga jalb etadi. Dev haqidagi ilk tasavvurlar eng qadimgi miflar

markazida turuvchi va g'ayri tabiiy xususiyatlar bilan talqin etiluvchi afsonaviy dev obrazi asosida yaratilgan.

Xalq og'zaki ijodida uchraydigan dev obrazining qiyofalarini tasvir jihatidan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Arxaik qiyofa: jahon folklorshunosligida, xususan I. Frezer va Ya. Propp asarlarida xalq og'zaki ijodidagi antropomorfik obrazlar hayvonlarning madaniylashuvi oqibatida deb, sharhlanadi.

Bu sharhda asos bor. Jumladan, dev obrazida mavjud bo'lgan odamho'rlik va g'ayri tabiiy qiyofa ana shu madaniylashuv bilan bog'liq.

Bizningcha, qadimgi ilon va odamho'r yaratilqlar keyinchalik madaniylashuv oqibatida dev qiyofasini olgan. Proppning ta'kidlashicha, nafaqat obrazlar, balki xudolar ham yirtqich hayvon qiyofasidan asta-sekin odam qiyofasiga kirib borgan emish. Dev obrazi ham avval yirtqich hayvon qiyofasida bo'ladi, keyinchalik odam qiyofasiga kirgan. Hatto, turk asotirlaridagi yerni va odamlarni dunyoga keltirgan Tiamat dev ham ba'zi afsonalarda g'oz, o'rdak, ba'zilarida ilon-ajdahoda shaklida tasvirlangan.

Devning ikki boshi, to'rt boshli, shohli, jundor, dumli bo'lishi, uchib yurishi, qush qiyofasiga kira olishi quyin ko'tarib kelishi devlistik tasavvurlar mahsuli bo'lib, dev obrazining yirtqich hayvon yohud ajdahodan kelib chiqqanini

ko'rsatadi. Shuning uchun ham dev ertak hamda dostonlarimizda yozuvlik kuchi timsolida tez-tez uchraydi. Dev va ajdahoning o'zaro yaqin ekanligi ertaklarda qurbonlik marosimida ham saqlanib qolgan. Ajdahoga qurbonlik qilinayotgan qiz yoki bola dev yeyish uchun olib ketgan odamlar bilan aynan bir narsadir.

Ya.Propp ajdarning uchib yurishi va ko'p oyoqli bo'lishini epik chatishma hodisasi deb shrhlaydi. Dev obrazining ajdardan kelib chiqqanligi dev haqidagi mifik qarashlar ibtidosi -"xudolar" ga borib taqalishini inkor etmaydi. Jahon folklorshunosligida qayd qilinishicha, Zevs-burgut shaklida, Anibus - bo'ri

shaklida, Germos-qanotli qush shaklida tasavvur qilingan. Xalq og'zaki

ijodidagi dev obrazi o'ziga ajdar xususiyatlarini saqlagan holda odam qiyofasiga

kirishi madaniylashgan davrga to'g'ri keladi.

Dev bilan ajdarning ertak va dostonlardagi tasvirida bir-biriga yaqinlik mavjud. "Ajdohonning og'zi minordek, kallasi chinordek ekan, og'zini g'ordak ochib, yerga tushibdi-yu, Suhrobni yutmoqchi bo'lib, domiga tortibdi", yoki "og'zidan o't purkayotgan dev haybat bilan yaqinlashibdi". Ikkila tasvirda ham yaqinlik mavjud.

I. Madaniy qiyofa: Odamlar madaniylashib, tabiat oldidagi ojizliklaridan qutila borgan va koinot sirlarini anglab borgan sari xudolar ham odam qiyofasini ola boshlagan.

Devlar arxaik qiyofalarini saqlab qolgan bo'lsalarda, yirtqichlik alomatlaridan butkul qutilmaganlar. Devlarning gurzi ushlab jang qilishi yakkama-yakka jang lavhasini anglatadi.

Dev odam qiyofasini olgandan so'ng, ham, unda hayvonlarga xos shox, odamho'rlik, junboshlik, tirnoq belgilari saqlanib qolgan. Masalan, "Rustamxon" dostonidagi dev odamdan deyarli farq qilmaydi. Shu tufayli devning madaniy qiyofasi ikki bosqichdan iborat. Dastlab, dev qo'rqinchli, vayron qiluvchi, yovuz kuch sifatida tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik yuvosh, rahmdil, odam uchun xizmatini ayamaydigan mahliq sifatida talqin etiladi.

I. Timsoliy qiyofa: ertak va dostonlarimiz badiiy ijod namunasi bo'lganligi uchun dev obrazi muayyan timsol sifatida ma'lum vazifani bajaradi. Masalan,

"Pahlavon Rustam" ertagidagi dev Rustamning qahramonligini bo'rtirish bilan birga, xalqning azob - uqubatlarini yengish orzusi timsolini ham bajaradi.

Folklor asarlaridagi dev obrazi turli g'oya, maqsad va falsafiy tushuncha timsollari bo'lib keladi. Sh bilan ertak, dostonlar yaxshilik va adolat bilan intiqosiga etadi.

Turk asotirlarida jinlarga ,shaytonlarga ham duch kelinadi. Faqat keyinroq borib muhim tarixiy jarayonlar va din o'zgarishlariga oid turli afsonalar, hikoyalar tarqalganligini kuzatish mumkin . Bu haqda turli tarixiy va yozma manbalar guvohlik beradi.

Oltoylar tasavvuricha, shoytonlar fitnayu fasod chiqarish, insonlarni qo'rqitish, yo'ldan urish uchun Yerlik Xon topshirig'ini olganlar. Jinlar ham ana shu Tangri yordamchilaridir, ular ham insonlarni jarohatlab, kasal qilib, oxiratda esa shaytoniy -zaboniy qiyofasida bo'ladilar.

Shaytonlar ko'zga ko'rinmaydilar, ammo ba'zan inson va hayvon shakliga kiradilar: ularning boshlarida – shohlari bo'ladi.

Ular ko'pincha bir-biridan ayri yashaydilar. Yonlariga yo'lab bo'lmaydi chunki ular olovdan yaratilgan.

Manbalarda qayd etilgan g'ayriilohiy yaratilardan yana biri yerosti olamining yomonlik Tangrisidir.Unga ko'ra Yerlik Xon jahannamning ham Tangrisidir. Uning gunohkor insonlarga jazo beradigan jinlari, shoytonlari, zaboniylari, yomon ruhlari bor.

Oltoy turklari e'tiqodiga ko'ra, oynalar yohud Ozolarning amrida xilmaxil katta vazifalarga ega bo'lgan bir talay jinlar, shaytonlar hozir bo'ladi.

Etrusklarning Toxas, To'qimio nomli katta jinlaridan tashqari adiinu nomli xo'rtyuhlari (nazardan chiqib, odamlarni qo'rqitadigan yaratiq, hoyolot) va Cho'r degan jinlari ham bor.¹⁰

¹⁰ Murot O'roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 21-bet.

Mashhur qahramon “Jastani Boy” hikiyosida tasvirlanganiday, insonning etini yeb, qolini so’ruvchi jinlar ham ko’p.¹¹

Jinlar iyu shoytonlarining sifatlari, yashash tarzlari haqida, keyin-keyin turk asotirlaridan o’rin olgan afsonalardan ikkitasi “Tobori” da shunday tag’riflanadi.¹²

“Tangri dastavval devlarni yaratadi. Ularning “Jon” derdilar. Ular qum zarralariday ko’p edi. Yetti ming yo’l bu jahonaq hakim bo’ldilar. Undan keyin tangri ”jon” dan jinlarni yaratdi, ulayton ulardandir. Shoytonning oti suryoniy va ibroniytilar tilida Azozil, arab tilida harisdir.

Shayton uylandi. Chumoli, o’rgimchak, chigirka, qush shakllarida sanoqsiz avlodlari bo’ldi. Bular qirlar, tog’ daralari, o’rmonlar, yo’llar vayronalar, dashtliklar, cho’lliklar, jarliklar, chuqurlar, kulxonalar; hammomlarni esitadigan va faqat hammomlarninig tagida bo’ladigan yopiq, keng o’choq va suv yo’llarida bo’ladi. Ularning manzil-makoni ana shu erlarda joylashgan.

Afsonalarda qayd etilishicha, jinlarni, malaklarni Tangri ko’kka joylashtirdi. Ularga itoat etishlarini amr etdi. Tangri ko’kdagi malaklarga dedi: ”ikki uy xalq ayladim. Biri rahmatimdan, biri esa g’azabimdan. Ikkisiga ham qarang!” Malaklar avval jahannamga qaradilar, turli-tuman azoblarni ko’rdilar. Tangridan so’radilar ”Ey Tangri, bu uyni kimlar uchun yaratding?” Tangrining ruhsati bilan jahannam javob berdi: ”Bu uy Tangrini bilmaydigan, amrlariga ishonmaydiganlar uchun”. Shundan keyin malaklar jannatga qaradilar. U yerdagi turli farog’atu safolarni ko’rib, Tangridan so’radilar. Tangri: ”Kim Tangrini tanisa, uning amrlariga itoat etsa, bu uy o’shalarga!”, dedi. Malaklar shunda Tangri ko’z o’ngida yerga yashirindilar. Tangri ularni falaklarning eng yuksak va muqaddas yerlariga joylashtirdi”.¹³

Yana bir afsonada aytilishicha: Eskilarning urflariga ko’ra yer ”Arzi sovg’a” nomi bilan yetti qatga bo’lingan. Yettinchi qatning nomi Ajibodir. U yerda yashovchilar ”Jusum” deyiladi. Bular kalta bo’yli, qora qo’llari, oyoqlari

¹¹ Murot O’roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 14-bet.

¹² Murot O’roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 16-bet.

¹³ Murot O’roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 18-bet.

vahshiy hayvonlarnikiga o'xshash. Shayton ham o'z mohiyati bilan shu yerda yashaydi, o'zi taxtda o'tiradi, mohiyati atrofida tizilib turadi, ham biri yer yuzidagi insonlarni qanday aldab yo'ldan urganini shaytonga aytib beradi, u zavqlanib eshitadi.”¹⁴

Bir qancha jinlarning pollari ham bor: ko'pi ibroniylardan o'tgan. Turklar orasiga keyinroq tarqalgan. Hishonuhiy, jobir yin Mardon, Mdyun ibni zongiy, hoqsoq, Dormuz, yamhur, Qoraqosh ibni qasvos, Bulbula ibni Qizbon, Qoshqotur ibni Qoshibosh, Sholizor ibni Samon kabi nomlar shular jumlasidandir.

Turkiy xalqlar mifologiyasida o'zida yozuvlik timsolini aks ettiruvchi afsonaviy obrazlardan yana biri jodugar personajidir. Bu obraz mohiyatida faqat salbiy elatlar mujassam bo'lib, afsonalarga ko'ra, jodugarlar: sochlari to'zigan, dumlari uzun bo'lib tasvirlangan. Bular xotin jinsidan bo'lib, kursiga o'tirgan xolda kezib yuradilar, hatto kursini uchiradilar. Bundaylarni ”Kursini uchurgan jodugar”, deydilar. Ular birovga yaxshilik qilishni o'ylamaydilar. Qiladigan ishi yomonlik, kuchini faqat shunga sarflaydi. Bolalarni tishlab qochadi. Odam o'lgan zahoti tepasiga kelib, makas (mahsus chopqi) yasaydi. Agar makas qo'yilguncha o'likni mushuk g'ajib ketsa, o'lganning ruhi jodugar bo'ladi yoki o'lik mozordan chiqib ketadi. Turk asotirlarida yer ostida yashovchi va Yerlik Xon amrida bo'luvchi jodugarlarga ham duch kelamiz. Ular shaytonlarni odamlarga yo'llab, turli aziyat yetkazadilar. Insonlar bu aziyatlardan faqat qurbon bo'lib qutila oladilar. Jodugarlar o'lim hastaliklarni insonlarga balo qilib yuboruvchi ruh sifatida ham tasvirlanadi.

Turkiy mifologiyada keltirishicha, jodugarning qizlari ham bor. Ammo ular onalarining so'ziga kirmaydi. Xohlagan paytlarida chiqib, sahro-cho'l kezib yuradilar. Onalari ularning ra'yiga qarashga majbur bo'ladilar. Aytishlaricha, ularning onalarining bog'ida ikki kuvisi mavjud emish.

Agar jodugarning qizi sevgani bilan qochib ketmoqchi bo'lsa, o'sha kuvilarining biridagi boldan, sevgani esa ikkinchi kuvidagi qondan uchadi. Shunda ular har quyofaga kiradilar, natijada har erga keta oladilar.

¹⁴ Murot O'roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 21-bet.

”Jodugarni yo’q qilmoq uchun uning bog’idan bir gulni yulib tashlash kerak. Ammo bog’ning qo’riqchisi arslon yoki qoplonga o’xshab ketadigan bir mushukdir. Ana shu mushukdan juda ehtiyot bo’lish kerak. Undan ehtiyot bo’lish kerak. U bizga kun bermay qo’ydi, deb, uy-joylarini tashlab ham ketisharkan. G’arbiy Sibirda yashovchi tatarlar uni ”Sariq soch” deb atashadi.¹⁵

Boshqirdlar Yalmog’izni ”qizil libos kiyib yuradigan pakana ayol”, deb tasavvur etishgan. U aslida odam qadami etmagan o’rmonlarda yashab, u yerga adashib kirib qolgan odamlarning joyicha ozor bergan. Aldash, afsun bilan avrash, sehrlil vositalar orqali turli xil ofat va to’siqlarga girifdor qilish uning asosiy harakat tamoyillaridan sanaladi. Oltoy turklari tasavvuricha, yalmog’iz zabti tez, badjahl personaj sifatida gavdalanadi. U qo’liga tushgan odamlarni qaynab turgan qozon ichiga otadi.¹⁶

Ertaklar o’tgan mifologik obraz o’zining mifologik vazifasini g’ayritabiiy hodisalar muhitida davom ettiradi. Shu asosga ko’ra, folklor personajiga aylangan yalmog’iz kampir obrazi ham ertaklarda mifologik qiyofadagi yozuv kuch timsolida gavdalanadi va vazifa bajaradi. Masalan, ”zar kokilli yigit” ertagida Yalmog’iz kampir odam go’shtini yaxshi ko’radi, yosh bolalarni o’g’irlab yeydi. Demak, uning ertakdagi asosiy vazifasi mohiyatan insoniyatni yeb bitirish. Insoniyat tug’ulish, nasl qurish bilan uzluksiz ko’payib boradi. Yosh bolalar yeyilaversa, inson nasli o’zining davomiyligini yo’qotadi. Ertakda xaos tarafdori bo’lgan yalmog’iz kampirning xarakter doirasi toraygan bo’lsa ham, biroq mohiyatan o’zining mifologik negizi doirasidan chetga chiqqani yo’q. Juda ko’p arxaik mif uchun asos bo’lgan manashu mifologik negiz ertak uchun ham epik asos vazifasini o’tagan.

Ertak personaji kurash olib boruvchi yovuz kuchlar mifologiyasida xaos tarafdorlari, kosmosni xaoscha, tartiblilikni tartibsizlikka aylantirish tarafdorlari bo’lib, ular eskatologik vazifa bajaradilar. Ertak eskatologik vazifa bajarmagani

¹⁵ Murot O’roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 21-bet.

¹⁶ ”Qari na’matak”. – T.: 1977. Fan.196 – bet.

uchun mifologik yovuz kuchlar ertakda ikki xil qiyofada bitmas-tugalmas ziddiyatlarga asos bo'luvchi obrazlar vazifasini o'taydilar:

a) mifologik qiyofadagi yovuz kuchlar – deb, ajdar, jin, alvasti va hokoza;

b) antropologik (insoniy qiyofa) qiyofadagi obrazlar – deb, yalmog'iz kampir va shu kabilar.

Qizig'i shundaki, ertak tarkibida bunday mifologik yovuz kuchlarning harakat doiralari ham ma'lum chegaralar bilan belgilanib qoladi. Bu chegara esa ertakdagi badiiy shartlilik qonuniyatiga ko'ra, personaj yashaydigan yoki harakat qiladigan joylar bilan belgilanadi. Ertak ijodkori-xalq o'z personajining qadimiy yuzaga kelish asoslarini aniq bilmaydi. U o'zi yaratgan ertak asosida yotgan mifologik negizni, uning sub'yektini biladi, xolos. Mana shuning uchun ham xalq o'zining barcha ezgu orzu istagini, go'yalarini mana shu sub'yektga yuklaydi. Bu sub'yektning genetik asoslarini, g'ayritabiiy qudratga egaligining sabablarini aniq tushunib yetmaganligi uchun hamma vaqt o'zining xoloskor, g'oyalarini amalga oshiruvchi qahramonini xalq odatdagidan ko'ra, yuksak mahorat va mehr tuyg'ulari bilan tasvirlashga intiladi. "Zar kokilli yigit" ertagidagi personajning oltin sochga egaligi ham mana shu bilan belgilanadi. Mazkur personajning xatti-harakati tor doirada bo'lsa ham, mifologik xarakter kasb etadi. Chunki u yalmog'iz kampirlarni o'ldiradi, yosh bolalarni qurbon bo'lishidan saqlab qoladi.

Ertakga o'tgan mifologik obrazlar ham diffuziyaga u yoki bu darajada uchraydi. Masalan, yalmog'iz kampir obrazining tasvirini olaylik:

"...Boshi o'tovdek, og'zi eshikdek ekan. Qirqta dev uning xizmatidagi hozuru-nozur ekan.

Yalmog'iz kampir tushlikda bir tuyani, kechqurun ettita ko'yni yamlar ekan. Ovqatini qirq kishi ham kutarolmaydigan katta qozonda pishirar ekan. U odam go'shtini yaxshi ko'rur ekan, qishloq va shaharlarda yurib, kichik bolalarni o'g'irlar ekan"¹⁷.

¹⁷ "Qari na'matak". – T.: Fan.1977. 196 – bet.

Tasvir ob'yekti-yalmog'iz kampir antropologik qiyofadagi mifik obraz. Tasvir mifga xos mubolag'aga ega bo'lgan ham, biroq diffuziya natijasida ertak elementlari tasviriga etakchilik qiladi. Bu elementlar mifologik tasvirga qiyoslansa, mantiqiy ziddiyat mavjudligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, boshi o'tovdek, og'zi eshikdek bo'lsa, tushga bir tuyani, kechqurun ettita qo'yni esa, qirqta deb xizmatida bo'lsa, nega u shahar-qishloqda sadaqa so'rab yurib, kichik bolalarni o'g'irlaydi? Axir u to'g'ridan-to'g'ri bolalarnigina emas, balki katta odamlarni o'g'irlab yeyishi, o'zi sadaqa so'rab yurishi o'rniga qirqta deb odamlarni tutib keltirib berishi mumkin-ku? Demak, uning kichik bolalarni o'g'irlab yeyishi mifologik tasvir ichiga kirib qolgan ertakka xos diffuzion element xisoblanadi.

Yana sabolni davom ettirish mumkin: nega endi qirqta debni o'ziga bo'ysindirib olgan yalmog'iz kampir kichik bolalarni o'g'irlab yeyishi lozim ekan? U zo'rlik qilib ham hohlagan odamini yeyishi mumkin-ku? Shunday yovuz kuchni qo'rqita olgan odamlar nega birlashib yalmog'iz kampirni o'ldirmaydilar?

Bunday savollarni xohlagancha berish mumkin, lekin asosiy gap shundaki, agar yalmog'iz kampir o'ldiriladigan bo'lsa, ertak qahramonining ertakka hech qanday ahamiyati qolmasdi, binobarin, ertakning o'zi ham qolmasdi. Demak, mifik najotkor sub'yekt-dastlabki inson haqidagi mif bevasita ertak syujeti uchun efik asos vazifasini o'taydi. Mifning rivojlanib ertakka aylanish jarayonida yuz beruvchi yovuz kuchlar tasviridagi mifologik xususiyatlar bilan antropologik tasvir o'rtasidagi mantiqiy ziddiyatlar, shuningdek bevosita voqealar zaminida yotuvchi mifologik qadimiy tasavvurlar bilan shu voealarning yangicha interpretatsiyasi o'rtasidagi namutanosibliklar xalq uchun, ayniqsa, xalq ertaklari uchun ahamiyatsiz edi. Ertakdagi asosiy maqsad najotkor mifik sub'yektni ertak personajiga-xalq vakiliga aylantirish va shu orqali mahnatkash idealini

ifodalashdan iborat. Mifologik sub'yektning ertak personajiga aylanishidagi diffuzion holatlardan biri mana shunda namoyon bo'ladi.

Ertak personajiga aylangan mifologik sub'yekt o'zi bajaruvchi ijtimoiy-estetik funksiyasini o'zining qadimiy mifologik negizidan butunlay uzmagan xolda davom ettiradi. Biroq bu aloqadorlik ro'yonga chiqishi mifologiyadagiday vebosita mifik kodlar orqali yuz bermay, balki boshqa "katalizator" – mifik

obrazlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, "Zar kokilli yigit" ertagida bunday mifik "katalizator" obrazlar rahimdil pari, uchta rahdil dev, uchta zotli arg'umoq, uchta sayroqi qush kabilar. Bu obrazlar yordamida personaj o'z zimmasiga tushgan vazifani muvaffaqiatli bajarib maqsadga erishadi. Xullas, o'zbek sehrli-fantastik ertaklari ichida o'zgarish uchrab ertak personajiga aylangan mifologik obrazlar juda ham ko'p uchraydi. Bunday personajlarning vazifasi o'z mohiyatini mifologik asos bilan bog'liqligina yo'qotmaydi. Ertak personajlarining ayrimlarida ko'zga tashlanuvchi mifologik asos bilan bog'liqlik ko'pgina xalq ertaklari uchun tipologik hol hisoblanadi.

Endi so'z pari obrazi haqida. Pari bilan aloqador xalq qarashlariga doir materiallar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, bu obraz Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy mifologik tasavvurlari tizimiga aloqadordir. Ma'lumki, pari haqidagi eng ko'xna ma'lumotlarni o'zida ifoda etgan yozma yodgorlik "Avesto" bo'lib, uning barcha qismlarida bu obraz "Payrika" nomi bilan qayd qilingan. Payrika mifologik personaj nomi bo'lib, genetik jihatdan pari obrazining arxaik ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Ammo "Payrika" obrazining talqini borasida ilmiy adabiyotlarda yakdillik yo'q.

Masalan, V. Gerterning fikricha, "Avesto" dagi payrika payri tabiiy husni jamolga ega bo'lgan sohibjamol ayol-geterlar, yovuz sohira, ya'ni feya ma'nosida qo'llanilgan.

”Avesto” talqiniga, ”Payrika” yovuz kuch timsolidir. Eron avestoshunosi B. Sarkaratining ma’lumotlariga suyanan A. E. Bertels bu haqda shunday yozadi:

”Avesto” matnlaridan birida pari haqidagi tasavvurlar beaqllilik va jinnilik bilan bog’lab talqin qilinadi. Barcha matnlarda bu obraz faqat yovuz mavjudod sifatida tasvirlangan. ”Avesto”da bitilishicha, ”ayrim vayeaqilargina parilarning

yaxshilik qilishiga ishonadilar”. Bu esa pari kulti va unga sig’inish an’anasi zardushtiylik aqidalari hukmron diniy e’tiqod sifatida keng tarqalgan davrlarda ham ayrim joylarda saqlanib qolganligidan dalolat beradi”¹⁸. ”Avesto”dagi ”Peyrika” yovuz kuch sifatida tasvirlanganligiga yana bir sabab, uning Angra Man’yu tomonidan yaratilganligidir. ”Yasht” ning VIII – faslida aytilishicha, oq ot timsolida namoyon bo’luvchi tishtryaning vazifalaridan biri – kechasi samo yoritqichlariga hamla qiluvchi ayol sifat yovuz mahluq-payrikalarga qarshi kurashish. Tishtryaning mardonavor zarbasiga dosh bera olmagan payrika bemisoli zamin bilan osmon oraliq’ida uchayotgan yulduzlardek to’kiladilar. ”Payrikalarga qarshi kurashuvchi ezgu tangrilardan biri – Mirtadir. U quyosh botgash, ”Zulamt qaridan bosh ko’tarmoqchi bolgan payrikalarni mavh etadi. (”Yasht”, x. 26).

”Avesto” bitikchilari bu haqda shunday yozadilar: ”Axriman jang qilayotganlarga yordam bersin deb, qora ibtidodan yaratilgan juda ko’p parilarni ham joylashtirildi. Ualr osmonu falakda charx urib aylanayotgan sayyoralar tevaragida bemolol yurishi, istagan tomonga qayrila olishi va harakat qilish o’ng’ay bo’lsin uchun samo yoritqichlari ko’rinishiga kiradilar. Shu tariqa sayyoralarga evrilgan parilar kichikroq ruhlarni o’z domiga tortishar, boshqalarga

¹⁸ Bertels A. N. Peri // Kultura i iskusstva narodov srednoy azii v derevnosti i srednevekove. M. , 1979. S. 126.

go'yo nur tarqatayotganday bo'lib, aslida kasallik, og'riq va olimga mahkum etar ekan"¹⁹.

"Avesto" da tasvirlanishicha, payrika turli jonivorlar qiyofasiga ham kira olar ekanlar. Masalan, payrikalardan biri it suvratida bo'lib, o'rmonda yasharmish. Agar uni uchratgan kishi qilich bilan hamla qilib, itni ikkiga bo'lib tashlasa, uning jasadidan yana ikkita kuchuk paydo bo'lar emish. Umuman, "Avesto"da payrikalar sohibjamol ayol va jonzot (it, kalamush kabi) ko'rinishda bo'lishi qayd qilingan.

Parilarning it ko'rinishida bo'lishi haqidagi qarashlar hozir ham saqlangan. Buxoro viloyatining Olot tumanidagi Ko'kko'z qishlog'ida yashagan tabib Oliya momoning e'tirof etishicha uning parilari ba'zan kechasi it bo'lib kelar ekan. "Gulandom" nomli tojik xalq ertagida podsho bolalarini emizib, katta qiladigan parilardan biri katta qora it suratida tasvirlangan²⁰.

Jonning it ko'rinishida namoyon bo'lishi to'g'risidagi mifologik qarashlar parining bu jonivor suratida tasavvur qilinishiga asos bo'lgan. Chunki qadimgi odamlar tasavvuriga ko'ra, yovuz kuchlar timsoli hisoblangan Yalmog'iz, Jodugarlar uxlagan paytlarida ularning joni tanani tark etib, qora it shaklida olamni sayr etarkan. O'lgan odam ruhi it ko'rinishini oladi deb o'ylaganlar. O'lgan odam jasadi ustidan itning sakrab o'tishi ruhning qaytishi alomati deb qaraganlar. Polyaklar etiqodicha, suvga cho'kib o'lgan kishilarning ruhi it suvratida namoyon bo'lar ekan²¹.

¹⁹ Litvinskiy A. E. Semantika drevnix verovaniy I obryadov pamirstev// Srednaya Aziya i ee sosedi v drevnosti i srednebekobe. M., 1981.S.95.

²⁰ Tajikiskiy narodnie skazki. Sostavlenie I obrabotka R. Amonova. Dushanbe. 1972. S. 283.

²¹ Legende, mifi I predaniya. -M.Nauka. 1992. S. 20-23.

Demak, odam o'lgach, uning ruhi jonivorlar suvratiga enadi ya'ni "qayta teriladi" degan xalq qarashlari asosida parilarning itga evrilishi motivi kelib chiqqan.

"Avesto"da tasvirlangan pari (payrika) obraziga xos asosiy belgilar quyidagilardan iborat:

- a) yovuzlik olamiga mansublik;
- b) antropomorf (inson ko'rinishida) va zoomorf (hayvon ko'rinishida) qiyofasida namoyon bo'lishi;
- c) husni jamolda benazirlik;
- d) ezgulik olami vakillariga qarshi kurashish;
- e) sehr-jodu qudratiga egalik;
- f) deblar bilan aloqadorlik.

Pari obrazi O'rta Osiyada yashagan qadimgi dehqonlarning zardushtiylikdan bugungi mifologiyasida shakllangan bo'lib, dastlab hosildorlik kulti bilan bog'liq holda tasavvur qilingan. Zardushtiylik ta'limoti kelib chiqqach, ezgu kuchlar toyifasiga mansub bo'lgan ko'pgina mifologik obrazlar singari parilar ham yovuz kuch ramziga aylangan. Axuramazda boshchiligidagi ezgulik kuchlarining pari, deb kabi yovuz timsollariga qarshi murosasiz kurash motivida zardushtiylik ta'limotining o'zidan avvalgi etiqodiy ishonchlarga qarshi kurashi o'z ifodasini topgan.

Yuqoridagi qisqacha tahlildan so'ng biz pari obrazining tarixiy ildizlari va mifologik obraz sifatidagi rivojlanish bosqichlarini quyidagicha davrlashtirdik:

- I) pari – ezgulikka hizmat qiluvchi homiy kuch timsoli (Zardushtiylikdan oldingi davr);
- II) Pari – yovuzlik olamiga mansub shaytoniy kuch timsoli (Zardushtiylik davri);
- III) Pari – mifologik va badiiy obraz (Zardushtiylikdan keyingi davr)²².

²² Qayumov O. Pari obrazining genezisiga doir mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. 1998. №4. 14-bet.

O'rta va Yaqin Sharq xalqlari, jumladan, O'zbek xalqining mifologik qarashlarida parilar inson qadami eta olmaydigan uzoq yurtda (bu yurt xalq ertak va dostonlarida Ko'hiy Qof deb yuritiladi) yashaydilar. Parilar esa asosan inson qiyofasida bo'lib, o'ta go'zal bo'ladilar hamda bir paytning o'zida turli qiyofaga kira oladilar (O'zbek ertaklarida ko'proq turli rangdagi kaptarlarga aylana oladilar) va hech qachon o'lmaydilar "Afsonalarga ko'ra, parilar ko'klar olami va dunyo ustidagi yerlarda bo'ladilar... Parilar... qavvat- qavvat ko'klarda, noma'lum olamda rohat-farog'atda yohud gunohsiz insonlar bilan jannatlarda yashaydilar.

Parilarning umrlari raqamlarga sig'mas qadar uzundur. Hatto boqiyalar orasida bo'ladilar.

Parilardan biriga:

"Sen qachon yaratilding", dev savol berilganda, u...

"Bilmayman, faqat har to'rt yuz ming yilda bir yulduz yaraladi", deb javob bergan ekan. Unday bo'lsa, yaratilish pari milliard sanadan beri yashayotgan bo'ladi"²³.

Xalqning mifologik e'tiqodlariga ko'ra, pari quchgan kishilar uzoq yashashlari, hattoki, umrboqiylikga ham ega bo'lishlari mumkin. Mana shu boisdan xalq o'zi sevgan qahramoniga ana shunday parilarni duch keltirib, ularning xatti-harakati, qismati orqali o'zining orzu – umidlarini kuchaydi.

"Turk qabilalari orasida ko'p tangrilari pari qiyofasida tasvirlangan. Turk ishonchlariga ko'ra, insonlarning va ashyolarning biror ma'budi bo'lganiday, har uyning ham bir parisi bor.

Uy parisi uyning toza turilishini istaydi. Uyni toza ko'rmasa, achchiqlanib ketib qoladi, o'rnini jinlar egallaydi. Shu qo'rquv bilan uylar toza tutiladi"²⁴.

Parilarning ko'proq qaysi parranda qiyofasiga kirishi masalasida bir xil xususiyatga ega. Har ikki janrda ham parilar kaptar kiyofasiga kiradilar, agar istisno tarzda pari qizlar boshqa xil qushlar qiyofasicha kirsa, bu hodisa faqat keyingi davrlarga xos transformatsiya lozim. Bu o'rinda parilar necha boshqa

²³ Murot O'roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 21-bet.

²⁴ Murot O'roz. Turk asotirlari // Sirli olam. 1991. №4. 21-bet.

kushlar quyofasiga emas-u, faqat kaptar qiyofasi orqali namoyon bo'ladilar, degan savol tug'ilishi mumkin.

Xalq ertaklari va dostonlari, afsona, rivoyat va naqlari o'zlarining ijtimoiy-estetik mohiyatlari bilan xalq ommasi orzuistaklarini nisbatan keng qamrovga, qiziqarli tarzda aks ettiruvchi janr hisoblanadi. Demak, bu voqea yoki obrazni o'zining mifologik zamiricha yaqinroq shaklda aks ettiradilar. Agar xalq orasida yuruvchi turli xildagi rivoyat va naqlarga diqqat qilinsa, ularning barchasida ham parilar faqat kaptar qiyofasida uchrashini kuzatish mumkin. Bu narsaning sababi shundaki, kaptar o'zining turli xislatlari bilan insonga yaqin turadi. Qolaversa, qadimgi insonlarning animistik qarashlari, ya'ni kishilarning joni bevosita kaptar qiyofasida uchrashi bilan izohlanadi. Ko'pgina xalq ertak va dostonlaridagi mifologik obrazlar (maston, ajdar yoki dev kabilar) ning joni topilishi mushkul bo'lgan joylarda kaptar qiyofasida yashirilgan bo'ladi. Mana shu sehrlilarni topish va qahramonning mifologik to'siqlaridan muvaffaqiyatli o'tishida unga hammavaqt ko'makchi obraz yordamga keladi. Qadimgi insonlarning jon haqidagi tasavvurlari kaptar bilan bog'liq ekan, demak, tirikjon- pari obrazining ham kaptar bilan bog'liqligi o'z-o'zidan tabiiy hisoblanadi. Parining kaptar qiyofasidan inson qiyofasiga yoki aksincha inson qiyofasidan kaptar qiyofasiga aylanishi uning g'ayritabiiy qudratga ega ekanligini anglatishdan, aniqrog'i, inson tasavvuridagi parilarning mifologik zaminini sehr pardasiga cho'lg'angan holda ifodalashdan iborat.

Mazkur o'rinda yana bir narsacha ahamiyat berish lozim. U ham bo'lsa parilarning qay vaqtda qanday rangdagi kaptar qiyofasiga uchrashi masalasi hisoblanadi. Bu masalada xalq afsonasi, rivoyat, ertak va dostonlardagi parilar obrazini ko'zdan kechirish shuni ko'rsatadiki, o'zbek folklorining epik janrlaridagi kaptar qiyofasida parilar ikki xil pangda uchraydilar:

a) ko'k rangda. Bunday rangdagi kaptar asosidagi mifologik obraz epik qahramon oldiga juda ham mushkul, ammo uning uddasidan chiqa olodigan vazifa qo'yadi. Buning yorqin misoli sifatida biz so'z yuritayotgan dostodagi Malika Aiyorni ko'rsatish mumkin.

Rang nuqtai nazardan qaraganda, ko'k rang qadimdan g'ayritabiiylik, ilohiy qudrat tushunchalari bilan izohlanadi. Chunki qadimgi insonlar ko'k rangdagi osmon va u bilan bog'liq jismlar hamda hodisalarning tub sabablarini bilmaganliklari uchun ularning barchasini ilohiy deb hisoblangan. Osmonning moviy rangi esa hamisha ilohiy qudrat ramzi sifatida qabul qilingan. Xudolarning aksariyati hollarda osmonda tasavvur etilishi, hattoki, qadimgi turkiy tildagi ko'k osmon atamasining keyinchalik faqat xudo ma'nosida qo'llanilishi ham fikrimizning yorqin doimiy bo'la oladi. Kultegin yodnomasidan keltirilgan quyidagi jumla shu jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Unda Kulteginning otabolari dunyo yaratilgandan buyon saltanat egalari:

“O'za ko'k tasri asra jag'iz jip hilintuqda, akin ara kisi og'li qilinmis”²⁵.²⁶

Ya'ni:

Yuqorida ko'k tangri (osmon), pastda yag'iz yer (ko'ng'iz yer) qilinganda (yaratilgan) boshqacha aytganda, dunyo yaratilganda, ham ikkinchisining o'rtasidagikishi o'g'il (inson) yaratilgan.

Keltirilgan parchadagi eng qiziq dalil osmon atamasining qadimgi turkiy tilda “ko'k tangri” shaklda ekanligi hisoblanadi. Demak, “Tangri” so'zi keyinchalik o'z o'rnini fors-tojikcha osmon so'ziga bo'shatib berib, o'zi faqat xudo ma'nosida qo'llanila boshlagan. O'z mohiyati jihatidan osmon ma'nosidagi “Tangri” so'zi juda ko'p xalqlarda, yani paytda xudo ma'nosini anglatgan.

O'zbek xalq ertak va dostonlarida parining ko'k kaptar qiyofasi orqali berilishi ikki narsani:

- 1) g'ayritabiiylik, ilohiylik qudratga egalikni;
- 2) xavf-xatar, sehr, tilsimga boyligini ta'kidlashga xizmat qiladi.

Ayrim xalq ertak va dostonlarida oq kaptar ham uchraydi. Bunday kaptar ko'p o'rinda biror mifologik obrazning joni yoki pariga aylanishi mumkin bo'lgan qiyofasi sifatida beriladi. Oq rangdagi kaptar qiyofasida tasvirlangan

²⁵ Malov S. E. Pamyatniki drevetyurkskoy pis'mennosti.- M.: - 1951. S.

28.

26

parilarning epik qahramon oldiga qo'ygan vazifasi u qadar xavf-xatarga boy bo'lmasligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilar asoslangan holda pari obraziga quyidagicha ta'rif berish mumkin: turkiy mifologiyadagi pari afsonaviy obrazi xarakter xususiyatlariga ko'ra farqlansa-da, ulardagi tengsiz go'zallik va sehrlil xususiyatlar mazkur obrazlar o'rtasidagi mushtaraklikni tashkil etadi. "pari" so'zining o'zi diniy tafakkurga oid tushunchani ifodalaydi. Lekin xalqimiz bu obraz orqali estetik va manaviy ahloqiy tarbiyaning turli prinsiplarini rivojlantirishga muvaffaq bo'lgan.

Demak, quyida biz mifologiya turkiy xalqlar madaniyatida muhim o'rin tutishini afsonaviy obrazlar misolida dalillashga urindik. Biz tilga olgan (dev, jin, jodugar, yalmog'iz, pari,) afsonaviy personajlar ibtidoiy tasvvur tizimlari asosida yuzaga kelgan va shakllangan.

II.2. TURKIY MIFOLOGIYADA AFSONAVIY QUSHLAR OBRAZI

Turkiy xalqlar mifologiyasi hamda og'zaki ijodida, mumtoz yozma adabiyotda va bugungi jonli so'zlashuv tilida bir qator afsonaviy qushlarning nomlari uchraydi. Bu kabi afsonaviy personajlar, asosan ramzi ma'no kasb etadi. Ularni o'z manosida tushunish, o'rin kelganda qo'llash uchun, dastavval, ana shu afsonaviy qushlar haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish lozim.

Og'zaki ijodda muhim o'rin tutuvchi mifologik qushlar obrazi ajdodlarimiz dunyoqarashlari bilan bevosita bog'liq. Qizig'i shundaki, qushlar, ularning qanoti yoki patlari ayrim xalqlar mifologiyasi va folklorlarida osoyishtalik belgisi va odamlar o'rtasida vositachi ro'lini bajargan. Bunday tasavvur – tushunchalar dunyo xalqlari mifologiyasi va ertaklarida ko'p uchraydi. Jumladan, turkiy xalqlar etiqodiga ko'ra, burgut qushlarning xoqoni. Atilaning qavmlari qo'lga kiritgan burgutning boshida toj bor edi. B. N. Grakovning e'tirof etishiga Burgut skiflarda sof osmonning kengligini anglatadi,²⁷ ya'ni burgut shoxlik ramzi sifatidagi turkiylardagi singari tangri bilan bog'lanadi. Chunonchi irq bitigida faoliyati osmon bilan bog'liq bo'lgan burgut obrazi bor.

²⁷ Grakov B. skivlar. M., MGU 1971. S. 136.

Turkiy asotirlariga ko'ra, Etonani osmonga Shamoshning burguti olib chiqqan. Ammo yuksakda Etonaning boshi aylanib, yerga tushgan. Chunki, shumerlar nazarida bandalar ko'kga chiqolmaydi.

Nin-girsu ham arslon boshli, burgut qanotli edi.

Talachin g'oyib bo'lganida quyosh tangrisi uni izlash uchun burgut yo'llagan. Xitit xaykallarida ikki uch boshli burgutlar ramz sifatida uchraydi. Burgut, yoqutlar e'tiqodiga ko'ra quyoshning ham ramzidir. Yoqut afsonalarida yoqut urug'i odamlarga quyoshdan olov keltirgan burgutdan tarqagan. Burgut urug'idan bo'lgan odamlar quyoshni muqaddas deb bilganlar²⁸. burgut mafsumlarni ham o'zgartiradi. Qanotlarini bir silkitsa muzlar eriydi, ikki silkitsa bahor keladi. Yoqutlarda ayollar farzand ko'rish uchun burgutga sig'inadilar.

Demak, burgut qadimiy tasavvur va e'tiqodlarga ko'ra Yorug'lik, ezgulik va salomatlik timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu kabi tasavvurlar turkiy xalqlar og'zaki ijodi va urfi an'analarida hamon yashab kelmoqda.

Sirojiddin Mahmud Sidqiy tamonidan tajrima qilinib, chop etilgan "Ajoyibot ul-mahluqot" asarida bir qator afsonaviy qushlar haqida qiziqarli ma'lumotlar bor. Jumladan, Qaqnus borasida quyidagilarni o'qiyamiz:

Qaqnus Hindiston orollarida yashaydigan bir qush emish. U ming yilgacha umr ko'rar ekan. O'limi yaqinlashganini sezsa, motam tutib, o'tin to'plar, boshqa qushlar atrofida parvona bo'lar ekan. So'nra to'plagan o'tini ustiga chiqib sayrar va qanot qoqar emish. tumshug'idagi behisob teshiklardan va qanotidan o'tchiqib, o'tinga tushar, ko'p o'tmay o'zi ham kulga aylanarmish. Kuldan esa yangi tuxum va bu tuxumdan yosh qaqnus paydo bo'larkan. Kuy va arg'anun (organ) musiqa asbobi uning ovoziga taqlidan kashf etilgan emish.

Turk asotirlariga ko'ra, qaqnus bu qushning tumshug'idan uch yuz oltmish teshikdan turli ovozlari chiqadi. Qushlar bu saslarni eshitib, unga yaqinlashadilar, u esa tutib olib ularni hotirjam yeydi. Patlari rangdor, g'ozal, ming yil yashaydi.

²⁸ Potonim. G. N. Ocherki severo-zalodnoy Mongolii – S. A. vip. 1881. S. 14.

Qaqnus o'limi yaqainlashsa uya yasaydi, u yerda yotib sayraydi. Keyin qanotlarini shu qadar kuchli silkitadiki, ulardan cho'g'lar sachrab, uyasini yondirib yuboradi. O'zi ham yonadi. Kulidan tuxum bino bo'ladi undan bolasi chiqadi.

Mifologik tasavvurlarga ko'ra, "Anqo afsonaviy qush bo'lib, Ko'hi Qofda yashagan emish. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, uning bo'yni juda uzun, o'zi esa bahaytbat yaratiq bo'lgan ekan. Anqo-qadimiy sharq xalqlarining ko'pchilik afsonalarida tilga olinadigan bahaytbat qush. U ko'pincha Semurg' bilan bir xil tasavvur etiladi. Anqo keyinchalik ma'jzaviy nomi boru o'zi yo'q, nodirlikda yagona mazmunini ifodalovchi tushuncha kasb etgan"²⁹.

Demak, Anqo patlari go'zal, bo'yni uzun, katta qush. Boyni oq patlar bilan xalqa holida o'ralgani uchun "Anqo" deyiladi. Anqo-bo'yinli degani.

Mis afsonalarida keltirilishicha, Anqo "Ottiz turli qush rangiga ega" deyilgan. Shu sababli Eronliklar buni sirang, simurg' deb ataganlar³⁰.

Anqo ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan darajada yuksakda uchadi. Qof tog'ining ustida yotadi. Ajdarholarni ovlaydi.

U qushlar hokimi sulaymon payg'ambarning devoniga kelib turgan, lekin boshqa kimsalarga ko'rinmagan.

Afsona aralash bir tarix rovoyatga ko'ra, fotimiy xalifalarining hayvonot bog'ida Anqo bo'lgan ekan.

Boshqa bir afsonaga ko'ra, bu qush bir payt ko'payib ketgan, atrofidagi hayvonlarni chuqib qochavergan. Najit, Xijoz taraflardagi xalq anqolarini bu qilig'idan bezor bo'lib, Muhammad payg'ambarlarning Makkadan Madinaga Hijrat qilishidan sal oldin, rasmelarning payg'ambarlaribo'lgan, Xonzala ibni Saffo yohud Xolid ibni Sinonga shikoyat etganlar. U tangriga duo qilgan, duo

²⁹ Murot O'roz. Turkiy asotirlar. Sirli olam// 1991. №6 14-bet.

³⁰ Murot O'roz. Turkiy asotirlar. Sirli olam// 1991. №6 20-bet.

asnosida Anqoning nasli bu dunyodan ko'tarilgan. Anqo ikki boshli qush xolida ko'rsatiladi. Bir boshi qush, bir boshi odam, insonday gaplashgan ham.

Anqoning o'limi yaqinlashganda quyosh uni inini yondiradi. U esa yana bir in quradi, ichiga kirib, boshqa qaytib chiqmaydi, o'sha yerda o'ladi. Suyaklari ichida bir so'lujon (dumaloq yoki yassi, uzun qurt) bo'ladi, undan Anqo bolasi chiqadi.

Turkiy mifologiyada Xumo doyim yuksakda bo'ladigan, yerga qo'nmaydigan bir qush sifatida gavdalanadi. Bu qush osmonda yashaydi va osmonda tuxum qo'yadi. Bu tuxum to yerga tushguncha ichidan bola chiqib, yana osmonga uchadi. Yerga qo'nmaydigan bu qushni oyog'i yo'q, Hindiston, Chin, Qipchoq osmonlarida yashaydi. boshqa bir afsonaga ko'ra, chumchuqdan kattaroq, yerga ham qo'nadi.

Bir zamonda davlat boshi saylamoqchi bo'lganlar. Bu qush odam ko'p to'plangan yerda uchirilgan. U kimning boshiga qo'nsa, uni davlat boshi qilib saylamoqchi bo'lganlar. Qush borib bir odamning boshiga qo'ngan. Uni podsho qilganlar. Shu sababli Xumo davlat qushi ham deyiladi. Xumoni topib, atay o'ldirgan kimsa qirq kunda o'ladi.

Xumo qushi qadimgi ertak va afsonalarida ham ko'p tilga olinadi. Uni "Jannat qushi", deb ataganlar. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u go'ya suyaklar bilan ovqatlangan, kimning boshiga soyasi tushsa, o'sha odam davlat va saltanatga erishgan. O'zbek ertaklarida uni "Baxt qushi" ham deb yuritiladi. "Boshiga baxt qushi qo'nibdi" degan iborani bugungi kunda ham tez-tez eshitish mumkin. U kutilmaganda baxt saodatga erishgan kishiga nisbatan ma'juziy ma'noda qo'llaniladi.

Turkiy asotirlarda uchravchi mifologik obrazlardan yana biri Semurg'dir. Semurg'- turkiy xalqlar og'zaki ijodida va yozma adabiyotida ko'p tilga olingan. U ruh kabi qudratli, ulkan afsonaviy qushdir.

"Ajoyib ul-mahliqot" asarida yozilishicha, Ruh-Hind va Chin orollarida yashaydigan bahaybat bir qushdir. U shunchalik kattaki, uchganda qanoti

quyoshni to'sib qo'yadi, fil va karkidonni bemalol ko'tarib keta oladi. Har tuxumi minoraday keladi.

“Ma'lumki, qadimiy Shatranj muxralaridan biri “ruh” deb atalgan va ana shu afsonaviy qush shaklida bo'lgan. Hozirgi shaxmat o'yinida bu muhra qal'a, burj shaklida bo'lsa ham, o'sha ” Ruh” nomi saqlanib qolgan”³¹.

Semurg' afsonaviy obrazi timsolida ajdodlarimizning o'zoq manzilni yaqin qilish, ko'nga parvoz etish haqidagi asriy orzulari ifodalangan. U dastlab Eron asotirlarida paydo bo'lgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham “Senemurg” shaklida ishlatilgan.

Badiiy adabiyotda ilk bor Semurg' fariddin attorning (1148-1219) “mantiq o't tayr” dostonida uchraydi. Alisher Navoiy bu asarni bolaligiga sevib mutolaa qilib, to'la yodlab olgan. Shoirning “lison ut-tayr” dostoni ana shu asar tasirotida dunyoga keladi. Dostonning markaziy qahramoni – semurg'dir. Adolatli hukmdor axtarayotgan qushlar xudxud (popishok) tavsiyasi bilan ana shunday olijanob fazilatlarga ega Semurg'ni qidirib, yo'lga tushadilar.

Ottiz qush Xudxud yo'l boshchiligida ranj chekib, talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat vodiylarini bosib o'tadilar va ettinchi-fakr va fano vodiysiga yetib keladilar. Kelib ko'rsalarki, hech qanday Semurg' yo'q, qidirgan qushlari esa o'zlari, ya'ni o'ttiz qush:

Forscha-semurg' ekan. Tasavvuf ta'limotining poklanish yo'lida riyozat chekish va nixoyat haqqa vosil bo'lish haqidagi g'oyalari akslangan bu asardan shoir barcha davrlar uchun muhim xulosani chiqaradi:

Kim sen-o'q sen harnekim maqsud erur, sendin o'zga yo'q nekim mavjud erur...

O'z vujudinga tafakkur aylagin,

Har ne istarsen o'zingdan istagil.

Ko'pgina o'zbek xalq ertaklarida Semurg' bahaybat, lekin marhamatli, insonga hamisha ko'makka shay bir qush sifatida tasvirlanadi. “Oinai jaxannamo”, “Rustam”, “Kenja botir” singari ertaklar ana shular sirasiga kiradi.

³¹ Murot O'roz .turkiy asotirlar//Sirli olam. 1991. №1 6-bet.

Hamid Olimjonning “parizod va Bunyod” asarida ham Semurg’ Bunyodga yaqindan yordam beradi.

Afsonaviy Semurg’ bilan bog’liq rivoyatlar tojik hamda boshqa turkiy xalqlar og’zaki ijodiga ham xosdir.

Turkiy mifologiyaga Samandar “O’tda yonmaydigan, yohud otashda yashaydigan, tulkidan kichik bir hayvon. Ba’zilarning fikriga, kalamushdan kattaroq. Dumi uzun. Yohud Hindistonda bo’ladigan va olovda yonmaydigan bir qush. Otashdan chiqqan paytida tutib olib, yungidan qilingan gazmol ham o’tda yonmaydi. Bir rivoyatga ko’ra esa, olobdan chiqsa o’ladi”.

Demak, Samandar haqida turli xil fikrlar mavjud. Ba’zi manbalarda u kalta-kesaksimon hayvon dev ko’rsatilsa, boshqa bir joyda qushga o’xshaydi, deb tasvirlanadi. Ko’p xollarda uni Qaqnus bilan almashtirib qo’yadilar.

“G’iyos ul-lug’at” nomli kitobga Samandar shunday tasvirlanadi:

“Katta sichqon yo kalamush singari hayvondir. Otashkada (Zardushtiylar olovga sig’inadigan ibodatxona) ichida paydo bo’ladi, olovdan chiqqan zahoti o’ladi. Ba’zilar esa uni olovda yonmaydigan qanotli bir jonivor”, deb yozganlar.

1973 – yil Bokida chop etilgan “Qadimiy agsonalar” kitobida esa bu haqda shunday deydilar:

“Samandar go’yo qorli-muzli o’lkalarda yashagan afsonaviy qor qushidir. Bu qushning tumshug’i po’lat, qanotlari esa chaqmoq toshdir. Samandar qushi ikkita bola ochadi. Bolalari bir kunning o’zidayoq qanot chiqarib, parvoz qiladi. Bundan sevingan Samandar hamma narsani unutib, tumshug’ini qanotiga uradi, shunda olov chiqib, o’zi ham kulga aylanadi”.

Ammo Samandarning o’tda yonmaslik xususiyati ko’proq mashhur. Shu tufayli qator rivoyatlarda, shoirlarimiz ijodida, bugungi kun adabiyotida ham uning ana shu xususiyatlaridan majoziy ma’noda foydalaniladi. Bir qadimiy

rivoyatda aytilishicha, Samandarning terisidan salla tikib, o'sha davr podsholardan biriga sovg'a qilibdilar. Har qachon kir bo'lsa, uni olovga solar, salla ya'ni top-toza bo'lib qolar ekan.

Xulosa qilib aytganda, turkiy mifologiyadagi afsonaviy qushlar obrazi nafaqat ibtidoiy tafakkur mahsuli, balki badiyat va tarixiy asosiga ega ekanligi bilan g'oyat ahamiyatlidir.

X U L O S A

O'zbekiston milliy istiqloлга erishgach, ma'naviyatga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vazirlar mahkamasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «kardlar tayyorlash milliy dasturi»da yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, ular ongida madaniy merosimizga mehr va hurmat xislarini shakllantirish vazifalari asosiy maqsad qilib belgilanadi. Shu jihatlarga ko'ra e'tirof etish joizki, tadqiqot uchun tanlangan mavzu g'oyat muhim va dolzarb bo'lib, ishda quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Mifologiya insoniyat badiiy tafakkurning ibtidosi sifatida olib qaraladi. U o'ziga xos qarashlar tizimi sifatida qadimgi ajdodlarimizning voqelikka qarashidagi eng umumiy, eng mushtarak yo'ldir;

2. Mifologiyaning inson hayotidagi asosiy vazifasi turli voqea, hodisa va narsalarni izohlash xususiyati bo'lmaganda edi, u mifologiyani xayolida ham bo'ysundirishga erisha olmagan bo'ladi;

3. Garchi mif og'zaki yaratilib, unda ham variantlilik, anonimlik mavjud bo'lsa-da, u folklor janri bo'la olmaydi. Chunki u voqelikni badiiy aks ettirmaydi;

4. Miflar folklor janrlarining boyishi, rivoji uchun imkoniyat yaratib bergan va qisman, o'zlari ham folklor janrlari tarkibiga singib ketgan;

5. Mifologik obrazlar ajdodlarimizning diniy dunyoqarashlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunday dunyoqarash, ya'ni animistik va totemistik tasavvurlar Markaziy Osiyo, umuman, turkiy xalqlarda qadim-qadimdan to bugungi kunimizgacha xalq bitiklari, dostonlari, ertaklari va urfu-an'analari orqali yashab kelmoqda;

6. Tabiiy hadisalar – yorig'lik, zulmat, bo'ron, sobuqlik, issiqlik, zilzila, yong'in, suv bosishi, vulqonlarning otilishi kabilar ajdodlarimizning tasavvurida Zoomorfik (hayvoniy shakl), Antropomorfik (insoniy shakl) qiyofasidagi ilohiy kuchlar harakati bilan bog'liq deb qaralgan;

7. Shu asoslarga ko'ra, qadimiy xalq ertak va dostonlarida mifologik obrazlar Zulmat, Sovuq, Kasallik va O'lim yoki Yorug'lik, Iliqlik, Salomatlik va Abadiy hayot timsoli sifatida tasvirlanadi.

8. Mifologik yovuz kuchlar ertakda ikki xil qiyofada bitmas-tuganmas ziddiyatga asos bo'luvchi obrazlar vazifasini o'taydilar:

a) mifologik qiyofadagi yovuz kuchlar – deb, ajdar, jin, alvasti va hokazo;

b) antropologik qiyofadagi obrazlar – pari, yalmog'iz kampir va shu kabilar.

Ta'kidlash joizki, ko'pgina tadqiqotlar mifologik obrazlar talqiniga bag'ishlangan bo'lsa – da, bu mavzu hozirgi paytda yana – da jiddiyroq, kengroq, chuqurroq va xolis o'rganilishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda folklor asarlariga ,xususan turkiy mifologiyaga ko'plab adabiyotshunoslar ,tarixchilar boy adabiy material manbai sifatida murojaat qilmoqdalar.Talabalar va o'quvchilar o'tmish ma'naviyatimiz bilan

tanishishda turkiy mifologiyani o'sha o'tmish zamonlarning tafakkur olamida ro'y bergan « eng noyob namunasi» sifatida o'rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. –176 .
2. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori (Oliy Majlisning 7-chaqiriq IX sessiyasida so'zlangan nutqi). –T.: Sharq, 1997.144-b.
3. Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992.78-b.
4. Karimov I. A. O'zbekiston milliy istiqlol-iqtisod, siyosat, mafkura – Toshkent: "O'zbekiston". 1993.521-b.

5. Karimov I. A. O'zbekiston Respublikasi va iqtisod, falsafa, huquq, ratix tilshunoslik, adabiyot shunoslik bo'lishlariga qarashli milliy tashkilotlar jamoalarining umumiy nutqida so'zlagan nutqidan. Xalq so'zi. 1992. 9 – iyul.

6. Avdiyev V. I. Qadimgi Sharq tarixi. – Toshkent: O'zbekiton. 1964.841-b.

7. Afzalov M. I. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent "fan" 1964.120-b.

8. "Avesto" /Asqar Mahkam tarjimasi //”San’at”. 1991. №5.16-20-b.

9. Veselobskiy A. N. Istoricheskoya poetika. – Moskva: Visshs. shk. 1989.456-b.

10. Imomov K. O'zbek xalq prozasi.- Toshkent:”Fan”.1981.224-b.

10. Jo'rayev U. Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. – Toshkent: Sharq, 1998.153-b.

11. Jumayeva S. Bo'ri e'tiqod ramzi. Xalq so'zi. 1992. 2-fevral.

12. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertakning syujet va motivlari. O'zbek tili va adabiyoti. 1996 №5. 28-31-betlar.

14. Jumayeva S. O'zbek xalq ertaklariga tarixiy yondashuv. –Qarshi: Nasaf, 2011. – 48 b.

15. Jumayeva S. Xalq ertaklarida obrazlar talqini. –T.: Fan, 2012. –90 b.

16. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertaklarning syujet va motivlari. O'zbek tili va adabiyoti. 1996. №5.

17. Jalolov G. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. –Toshkent: ”Fan” 1976.240-b.

18. Eshonqulov J. Dev obrazining badiiy tasviri. O'zbek tili va adabiyoti. 1997. №3.20-23-b.

19.Karimov B. O'zbek xalq ertaklarining ba'zi bir xususiyatlari haqida. O'zbek tili va adabiyoti. 1995. №5-6. 57-62-bet.

20.Razzoqov X. Mirzayev T. Sobirov O. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poyetik ijodi. – Toshkent: ”O'qituvchi”. 1990. 320-b.

21. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1 – tom. - Toshkent: "Fan" 1977.420-b.
22. Qayumov O. Pari obrazining genezisiga doir. O'zbek tili va adabiyoti. 1998. №4.14-15-b.
24. Haytun D. E. Totemizm ego sushnosti proisxojudenue. Stalinabad:1958.151-b.
25. Imomov K. O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 2-tom. – T. Fan. 1989.320-b.
26. Sokolova Z. P. Kult jivotnix v religiyax. – M. : Nauka. 1972.
27. Kosben M. O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. – T.: Fan. 1960..242-b.
28. Bertels A. N. Peri // Kultura i iskusstvo narodov sredney azii b drebnosti i srednevekobe. M. 1979.456-b.
29. Rahmonov H. A. Urxun – Enisey yodnomalari va turkiy eposlar. Filol. fan. d-ri ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. – T.: 1991.293-b.
30. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. T.: Fan . 1972.210-b.